



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

Google Scholar doi zenodo OpenAIRE

+998335668868

<https://innoworld.net>

2025



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 3-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net



**« ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR » NOMLI
ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2020 YIL 2-MART KUNGI «ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH YILI»DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RI SIDA»GI FARMONIDA KO'ZDA TUTILGAN VAZIFALARNI IJROSINI TA'MINLASH MAQSADIDA «INNOVATIVE WORLD» MCHJ TOMONIDAN TA'SIS ETILGAN «ORIENTAL JOURNAL ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY JOURNAL (OJAMR)» ILMIY-USLUBIY JURNALINING (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKASIYALARNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGINING 138572-SONLI GUVOHNOMA HAMDA ISSN 3030-3079) "ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR" NOMLI ILMIY, MASOFAVIY RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ONLINE KONFERENSIYASINI E'LON QILADI.

KONFERENSIYA TO'PLAMI ZENODO, OPEN AIRE, OPEN ACCESS VA INTERNET ARCHIVE BAZALARIDA INDEKSLANADI. KONFERENSIYA TO'PLAMIGA DOI RAQAMI BERILADI.

KONFERENSIYA TO'PLAMIGA QUYIDAGI YO'NALISHLAR BO'YICHA MAQOLALAR QABUL QILADI:

1. ANIQ FANLAR
2. TABIIY FANLAR
3. TEXNIKA FANLARI
4. PEDAGOGIKA FANLARI
5. IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR
6. TIBBIYOT FANLARI
7. IQTISOD FANLARI
8. QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

ESLATMA! KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMIGA KIRITILGAN MAQOLALARDAGI RAQAMLAR, MA'LUMOTLAR HAQQONIYLIGIGA VA KELITIRILGAN IQTIBOSLAR TO'G'RILIGIGA MUALLIFLAR SHAXSAN JAVOBGARDIRLAR.



**MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILINI
O'RGATISHDA INTERAKTIV O'QITISH TEXNALOGIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI****Yuldasheva Umidaxon Maxmudovna**

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim kafedrası

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlar doirasida chet tillarni, xususan ingliz tilini yosh bolalardan boshlab o'qitishning ahamiyati va interaktiv metodlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Ingliz tilining global o'rni, o'quvchilarning diqqatini jalb etish va faolligini oshirishda o'yinlarga asoslangan metodlarning roli ko'rib chiqilgan. Shuningdek, zamonaviy elektron ta'lim vositalari va pedagoglarning ushbu metodlardan foydalanishi ta'lim sifatini yaxshilashdagi ahamiyati ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: ta'lim islohotlari, ingliz tili, interaktiv metodlar, yosh avlod, til o'rganish, o'quvchilarning faolligi, elektron ta'lim, motivatsiya, ta'lim sifati.

Аннотация: В статье анализируется значение обучения иностранным языкам, в частности английскому, с раннего возраста в рамках реформ системы образования Узбекистана, а также эффективность интерактивных методов. Рассматривается глобальная роль английского языка и влияние игровых методов на привлечение внимания и активность учащихся. Подчеркивается важность современных электронных средств обучения и использования этих методов педагогами для повышения качества образования.

Ключевые слова: реформы образования, английский язык, интерактивные методы, молодое поколение, изучение языка, активность учащихся, электронное обучение, мотивация, качество образования.

Abstract: The article analyzes the importance of teaching foreign languages, especially English, from early childhood within the framework of education reforms in Uzbekistan, as well as the effectiveness of interactive methods. It discusses the global role of English and the impact of game-based methods on engaging students' attention and increasing their participation. The importance of modern electronic educational tools and the use of these methods by educators to improve education quality is also emphasized.

Keywords: education reforms, English language, interactive methods, young generation, language learning, student engagement, electronic learning, motivation, education quality.

Hozirgi kunda yurtimizda ta'lim sohasida ko'plab yangiliklar, islohotlar o'tkazilmoqda. Xususan, xorijiy davlatlar Finlandiya, Yaponiya, Germaniya kabi ta'lim sohasi rivojlangan mamlakatlar bilan ta'lim sifatini yaxshilash va o'quv faoliyatini isloh qilishda hamkorlikda ish olib borilmoqda. Bilamizki

dunyo tillari ichida Ingliz tilining o'rne nihoyatda beqiyos. Jahonda sodir bo'layotgan har bir voqea, hodisa, ilmiy izlanishlar eng avvalo ingliz tilida chop etiladi. Shu sababli yurtimizda ham ingliz tilini o'quvchilarga yoshlikdan, xususan maktabgacha ta'lim va maktab yoshidan boshlab o'rgatish belgilangan. Maktabgacha ta'lim va maktab yoshidagi o'quvchilar juda o'yinqaroq, qiziquvchan va biroz tez zerikib qolishlari sababli, bu yoshdagi bolalarga ta'lim sohasida, xususan ingliz tilini o'qitishda juda ko'plab interaktiv metodlar (o'yinlar) mavjud. Ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchi qiyinchiliklarni oson yengib, bu tilni ortiqcha stresslarsiz, sodda va oson o'rganishida interfaol o'yinlar, metodlarning o'rne beqiyosdir. Malakali pedagog buni bilishi va ta'lim jarayonida bunday metodlardan foydalanishi kerak. Bundan tashqari, interaktiv metodlar bolalarda fanga qiziqish, o'z ustida ishlash, izlanish va dars jarayonida faol qatnashish, o'qituvchida esa har bir bolani shaxsiy rivojlantira olish va sinfni to'g'ri boshqara olish kabi ko'plab masalalarda yordam beradi. Ma'lumki, interaktiv metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud. Ulardan eng ko'p foydalaniladiganlari "Aqliy hujum", "Blitz-savol", "Muammoli vaziyat", "Warm up", "Ice break", "TTT", "BTB", "Klaster" va "Moychechak guli" kabilardir. Bulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz: "Ice break" metodi o'z ichiga ko'plab qiziqarli o'yinlarni oladi. Bu metod asosan o'quvchilar diqqatini jalb qilish, zerikkan o'quvchilarni o'yg'otish, shuningdek, bir-birini tanimagan guruhlarda o'zaro muloqotni yaxshilash uchun yordam beradi. Kichik yoki katta sinflarda o'yin turiga qarab dars boshida yoki o'rtasida qo'llash mumkin. Dars boshida "name to name" usulidan foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilar bir boshidan o'z ismi va bitta yoqtirgan narsasi nomini aytadi, qolgan o'quvchilar o'sha ismga qo'shib o'z ismi va ular ham yoqtiragan biror bir narsaning nomini aytib ketaverishadi, oxirgi o'quvchiga hammaning ismi va narsaning nomini aytishi bilan o'yin yakunlanadi. Bu o'yin "zanjir o'yini" deb ham nomlanadi. O'quvchilar zerikkanini inobatga olgan holda ularga harakatli o'yinlar bilan dars o'tish tavsiya qilinadi. Misol uchun, o'qituvchi Ingliz tilida o'quvchilardan o'rnidan turishini, o'tirishini, o'nga, chapga burilishini va boshqa harakatlarni qilishlarini so'raydi. Bu jarayonda barcha o'quvchilar ishtirok etishi va o'qituvchi tabassumda bo'lishi juda zarur. shunchaki hamma narsani o'yinga aylantirish emas. Aksincha, bu xodimlarning motivatsiyasi va hatti-harakatlarini bevosita boshqarish va ularni real dunyodagi muayyan faoliyat bilan asta-sekin tanishtirish orqali tashkiliy strategiyalarni amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan puxta ishlab chiqilgan o'yin modeli. Interaktiv nazariyasi shaxslarning ularga taqdim etilgan vazifalarni hal qilishda ishtirok etish usullarini va kelajakdagi faoliyatga qiziqishni izchil saqlab turishni qo'llab-quvvatlaydi. Interaktiv yondashuv tashkilotlarga tashqi omillar (ichki motivatsiya) orqali xodimlarning motivatsiyasini oshirish mexanizmlaridan foydalanishga imkon beradi. Turli xil elektron qurilmalar va xizmatlardan foydalanish, bu bir tomondan talabalarga o'quv topshiriqlarini bajarishning turli bosqichlarida

zarur bo'lgan o'quv ma'lumotlarining mavjud o'zgaruvchan manbalarini taqdim etish, shuningdek talabalarni mavjud ma'lumotlarni qayta ishlashning texnologik vositalari bilan jihozlash imkonini beradi, boshqa tomondan, o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasida samarali aloqa vositasi bo'lib, kerakli ma'lumotlarni kuzatish va to'plash imkonini beradi. Talabalar faoliyati statistikasi, kiruvchi ma'lumotlarni tahlil qilish, o'qituvchining talabalarning chet tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash, o'quv topshiriqlarining maqsadlari va mazmunini to'g'irlash, ularga taqdim etilgan vazifalarni bajarish usullarida talabalarning individual xususiyatlarini aniqlash va talabalarni o'rganilayotgan fan mantig'ida zarur harakatlarga undash qobiliyatini kengaytirishdir.

Chet til ta'limida sifat va samaradorlikni ta'minlash maqsadida chet tillarni o'rganish va o'rgatish yoshini qisqartirish tajribasi ommalashib bormoqda. Bunga «the younger the better / early is better» mazmunidagi tushunchaning keng tarqalganligi sabab bo'ldi. Haqiqatdan ham, inglizcha so'zlarni nutqda to'g'ri qo'llash uchun ta'lim oluvchilar u haqda avvalo tasavvur va tushunchalarga ega bo'lishi kerak.



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ZAMONAVIY SUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Rashidov Ulug'bek Oripovich

"O'zbekeinvest EISK" AJ Aktuar hisoblar va
sug'urta zaxiralarini shakllantirish
departamenti menejeri

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda zamonaviy Insurtech texnologiyalarning mohiyati, ularni mamlakat sug'urta bozoriga joriy qilishning nazariy asoslari o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekistondagi sug'urta kompaniyalari tomonidan raqamli transformatsiya jarayonlarining holati o'rganiladi. Tahlil natijalariga asosan mamlakatda Insurtech'ni samarali joriy etish uchun strategik yo'nalishlar va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Insurtech, raqamli sug'urta, O'zbekistonda innovatsiyalar, sug'urta texnologiyalari, sun'iy intellekt, raqamlashtirish, sug'urta bozori

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida moliya xizmatlarini raqamlashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangani va sug'urta kompaniyalarining o'z xizmatlarini onlayn shaklga o'tkazishga qiziqishi yuqoridagi muammolarni bosqichma-bosqich hal qilish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Kelgusida Insurtech texnologiyalari nafaqat sug'urta sohasini, balki butun moliyaviy ekotizimni tubdan o'zgartirish potensialiga ega ekanini aytish mumkin.

So'nggi yillarda butun dunyoda Insurtech texnologiyalari sug'urta sohasining asosiy rivojlanish drayverlaridan biriga aylanganini ko'rsatadigan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, PwC hisobotida ta'kidlanishicha, sug'urta kompaniyalarining 76 foizi kelgusi besh yil ichida o'zlarining asosiy biznes jarayonlarini raqamlashtirishni asosiy strategik maqsad sifatida belgilagan.¹ Shuningdek, Allied Market Research hisobotida global Insurtech bozorining hajmi 2024-yilda 8,8 milliard AQSh dollariga yetgani, 2028-yilga borib esa 18 milliard dollardan oshishi prognoz qilinayotgani qayd etilgan. Bu esa ushbu soha yildan-yilga o'sib borayotganini va investorlar uchun jozibadorligini ko'rsatadi.²

Nazariy manbalar orasida M. Eling va N. Lehmann tomonidan yozilgan ish alohida e'tiborga loyiq, unda Insurtech nafaqat onlayn polislarni sotishga, balki underwriting, da'volarni ko'rib chiqish va xizmat sifatini avtomatlashtirishga ham jiddiy ta'sir qilayotgani ilmiy asoslarda tahlil

¹ PwC (2023). *Insurance 2025 and Beyond: Strategic priorities for the digital age*. [online] Available at: <https://www.pwc.com/gx/en/industries/financial-services/insurance/publications.html> [Accessed 28 Jun. 2025].

² Allied Market Research (2024). *Insurtech Market by Offering, Deployment, Technology, and End User: Global Opportunity Analysis and Industry Forecast, 2021–2028*. [online] Available at: <https://www.alliedmarketresearch.com/insurtech-market-A10352> [Accessed 28 Jun. 2025].

qilinadi.³ Shu bilan birga, P. Thakor o'z tadqiqotida sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (big data) asosida mijozning individual risk profilini aniqlash orqali sug'urta narxlarini moslashuvchan belgilash mexanizmlarini o'rgangan. Bu bizning yuqoridagi nazariy qismdagi AI va big data asosida risklarni baholash yo'nalishini asoslab beradi.⁴

Shuningdek so'nggi yillarda O'zbekiston sug'urta bozorida ma'lum jonlanish kuzatilmoqda. Bu asosan makroiqtisodiy o'sish, davlat tomonidan moliya xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan siyosatlar hamda aholining moliyaviy xabardorligining asta-sekin ortib borishi bilan bog'liq desak mubolag'a bo'lmaydi.

1-jadval

O'zbekiston sug'urta mukofotlari hajmining o'sishi (2021–2023)⁵

Yil	Sug'urta mukofotlari hajmi (trln so'm)	O'sish sur'ati (%)
2021	2,4	—
2022	3,05	+27%
2023	3,6	+18%

Bu jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston sug'urta bozori 2021–2023 yillar davomida izchil o'sishga erishdi. Xususan, ushbu davr mobaynida sug'urta mukofotlari hajmi qariyb 50% ga oshib, 2,4 trillion so'mdan 3,6 trillion so'mga yetdi. Bu holat mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishi, davlat tomonidan moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilishi hamda aholining moliyaviy xabardorligi va sug'urta xizmatlariga bo'lgan ehtiyoji asta-sekin ortib borayotganligi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, sug'urta mukofotlari hajmining ko'payishi bevosita sug'urta kompaniyalari tomonidan jalb qilinayotgan moliyaviy resurslarning ortib borishini, ular esa navbatdagi bosqichda raqamli transformatsiyani amalga oshirishga, jumladan Insurtech texnologiyalarini keng joriy qilishga sarflanishini ta'minlaydi.

2-jadval

³ Eling, M. and Lehmann, N. (2018). *The Impact of Digitalization on the Insurance Value Chain and the InsurTech Ecosystem*. Geneva Papers on Risk and Insurance - Issues and Practice, 43(3), pp.359–396.

⁴ Thakor, P. (2020). *Artificial Intelligence in Insurance: From Risk Assessment to Fraud Detection*. International Journal of Data Science and Analytics, 10(4), pp.279–289.

⁵ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

Sug'urta kompaniyalarida onlayn polis xizmatlarining ulushi (2023-yil yakuniga)⁶

Kompaniya	Umumiy polislar soni (yilda)	Shundan onlayn (%)
O'zbekinvest	240 000	16%
Kafolat	185 000	23%
Gross Insurance	145 000	34%
Asia Insurance	75 000	9%
Universal Sug'urta	63 000	12%

Ushbu jadval O'zbekiston sug'urta bozorida Insurtech xizmatlarining real amaliyotdagi ko'rinishini aniq ifodalab bermoqda. Undan ko'rinib turibdiki, mavjud sug'urta kompaniyalari ichida Gross Insurance elektron polislarini joriy etish va onlayn xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha yetakchi o'rinda turibdi — bu kompaniya tomonidan rasmiylashtirilgan umumiy polislarining 34 foizi aynan onlayn shaklda sotilgan.


Boshqa kompaniyalarda esa bu ko'rsatkich nisbatan past bo'lib, odatda 9–23% oralig'ida shakllangan. Bu esa respublika sug'urta sektorida raqamli xizmatlarning hali to'liq ommalashib ulgurmaganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, nazariy qismda qayd etilganidek, Insurtechning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan "onlayn polislarini rasmiylashtirish" jarayoni O'zbekistonda aynan mana shunday shaklda — ya'ni elektron platformalar orqali polislarini masofadan sotish ko'rinishida rivojlanmoqda. Biroq hali sun'iy intellekt asosidagi avtomatik risklarni baholash tizimlari, big data yordamida dinamik tariflash hamda blokcheyn asosidagi shartnomalar kabi ilg'or texnologiyalar keng ko'lamda qo'llanilayotgani yo'q.

Bu esa O'zbekiston sug'urta bozoridagi raqamli transformatsiya jarayonlari hozircha asosan boshlang'ich bosqichda ekanidan dalolat beradi. Biroq joriy natijalar — ya'ni ayrim kompaniyalarda allaqachon polislarining chorak qismi onlayn sotilayotgani — yaqin yillarda Insurtech imkoniyatlarining kengayishi uchun muhim iqtisodiy va texnologik zamin yaratilayotganini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston sug'urta bozorida so'nggi uch yil davomida kuzatilayotgan barqaror o'sish jarayonlari, xususan sug'urta mukofotlari hajmining 50 foizga oshgani va sog'liqni sug'urtalash segmentining 67 foizlik yuksalishi, mamlakatda ushbu sohaning asta-sekin rivojlanib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi. Shu bilan birga, bozorning kengayib borishi sug'urta

⁶ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

kompaniyalariga moliyaviy jihatdan mustahkamlanib, innovatsion texnologiyalarni joriy etish imkonini bermoqda. Bu esa yuqoridagi nazariy qismda yoritilganidek, Insurtech texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish uchun muhim iqtisodiy asosni yaratadi.



1-rasm. O'zbekiston sug'urta bozorida umumiy mukofotlar va onlayn polislar ulushi (2021-2023)⁷

Yuqorida keltirilgan tahliliy jadvallar va real statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda O'zbekistonda Insurtech xizmatlarining joriy etilishi asosan **onlayn polislarini rasmiylashtirish** ko'rinishida amalga oshirilmoqda. Jadval va tahlillardan ayon bo'ladiki, ayrim sug'urta kompaniyalarida, xususan Gross Insurance'da umumiy polislarining 34 foizi elektron shaklda sotilgan bo'lsa-da, ko'plab kompaniyalarda bu ulush hanuz past darajada. Bu esa respublika sug'urta bozorida raqamli transformatsiya jarayoni hali asosan boshlang'ich bosqichda ekanini anglatadi.

Bundan tashqari, aholi orasida internetdan foydalanish darajasi yuqori (78%) bo'lishiga qaramay, moliyaviy savodxonlikning pastligi (32%) va sug'urta xizmatlaridan foydalanishning juda cheklanganligi (6,2%) ushbu jarayonlarning ommaviylashuviga jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda. Natijada, nazariy qismda keltirilgan sun'iy intellekt, big data hamda blokcheyn asosidagi ilg'or Insurtech yechimlarini keng joriy etishga hali to'liq imkoniyat yaratilmagan.

Shu o'rinda, O'zbekiston sug'urta bozorida Insurtech texnologiyalarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash maqsadga muvofiq desak mubolag'a bo'lmaydi:

- birinchidan, aholining moliyaviy va raqamli savodxonligini oshirish orqali sug'urta xizmatlariga bo'lgan ishonch va talabni kuchaytirish;
- ikkinchidan, sug'urta kompaniyalarining IT infratuzilmasini modernizatsiya qilish va ularni sun'iy intellekt hamda katta ma'lumotlar asosida ishlaydigan tizimlarga o'tishini qo'llab-quvvatlash;

⁷ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

- uchinchidan, elektron polislar, smart-shartnomalar va blokcheyn asosidagi platformalarni huquqiy jihatdan mustahkamlovchi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish.

Shu bilan birga, xalqaro amaliyotlarda keng qo'llanilayotgan sun'iy intellekt, big data va blokcheyn kabi ilg'or yechimlarning hozircha O'zbekiston sug'urta bozorida cheklangan darajada qo'llanilishi, aholining moliyaviy savodxonligi pastligi va sug'urta xizmatlariga bo'lgan ishonchning yetarlicha shakllanmagani kabi omillar ushbu jarayonning asosiy to'siqlari bo'lib qolmoqda.

Shunday bo'lsa-da, mavjud ijobiy dinamika va hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan raqamlashtirish siyosati shuni ko'rsatadiki, yaqin yillarda Insurtech xizmatlarining rivojlanishi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi ehtimoldan xoli emas. Bu esa nafaqat sug'urta xizmatlari qamrovini kengaytiradi, balki aholiga yanada sifatli, tezkor va shaffof xizmatlar ko'rsatishga xizmat qiladi hamda mamlakatning moliya tizimi barqarorligini oshirishga sezilarli hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Eling, M. and Lehmann, N. (2018). *The Impact of Digitalization on the Insurance Value Chain and the InsurTech Ecosystem*. Geneva Papers on Risk and Insurance - Issues and Practice, 43(3), pp.359–396.
2. Thakor, P. (2020). *Artificial Intelligence in Insurance: From Risk Assessment to Fraud Detection*. International Journal of Data Science and Analytics, 10(4), pp.279–289.
3. Allied Market Research (2024). *Insurtech Market by Offering, Deployment, Technology, and End User: Global Opportunity Analysis and Industry Forecast, 2021–2028*. [online] Available at: <https://www.alliedmarketresearch.com/insurtech-market-A10352>
4. PwC (2023). *Insurance 2025 and Beyond: Strategic priorities for the digital age*. [online] Available at: <https://www.pwc.com/gx/en/industries/financial-services/insurance/publications>.
5. <https://cbu.uz>
6. <https://stat.uz>
7. <https://www.worldbank.org/>

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA HARAKATLI O'YINLAR
QO'LLASH****Turg'untoshev Muxlisbek Ilhomjon o'g'li**

Andijon davlat univeristeti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatli o'yinlarni qo'llash orqali jismoniy sifatlarni tarbiyalashda jismoniy tarbiya vositasi sifatida harakatli o'yinlardan foydalanish va shu asosida maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish texnologiyasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, tarbiya, insonparvarlik, jismoniy tarbiya, shaxs, jismoniy rivojlanish

Аннотация: В данной статье речь пойдет об использовании подвижных игр как средства физического воспитания при воспитании физических качеств у дошкольников с помощью подвижных игр и технологии развития двигательной активности детей на этой основе в условиях дошкольных учреждений.

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитание, гуманность, физическое воспитание, личность, физическое развитие

Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini belgilovchi va uni rivojlantiruvchi qaror va farmonlarda sohadagi dolzarb vazifalar kun tartibiga qo'yildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3261 sonli Qarori; 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5198 sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305 Qarori qabul qilindi.

Maktabgacha tarbiyani insonparvarlashtirish bolani tarbiyalash jarayonining asosi hisoblanadi. Ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimi shaxsga majmual, insoniy ta'sir o'tkazishi, har bir bolaning muntazam va imkon qadar to'la jismoniy rivojlanish huquqi amalga oshirilishini ta'minlashi kerak.

Bolalarni o'rab turgan muhit o'zgarib bormoqda. Oddiy, sodda o'yinlar o'rniga kompyuter o'yinlari kirib keldi. Bolani aqliy, estetik rivojlantirish ustuvorlik kasb etmoqda. Ularni ahamiyatini inkor etmagan holda aytish kerakki, harakatli o'yinlar, sayrlar, tengdoshlari bilan muloqot qilishga bolaning vaqti tobora kamayib bormoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirish muammolarini hal etishning yangi yo'llarini izlash, birinchidan, ko'rsatilgan ziddiyatlarni hal etish zarurati bilan, ikkinchidan, o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy tayyorgarligi rivoji jarayonini takomillashtirish qonuniyatlarini, metodologik va usuliy sharoitlarini o'rganish zarurati bilan bog'liq.



Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish texnologiyasini yaratishning nazariy asoslari mazmuni, shakli, vositalari hamda usuliyatini yangilash ishning predmeti hisobida amalga oshiriladi. Shu predmetni qo'lash jarayonida quyidagi farazni ilgari surish maqsadga muvofiqdir, jumladan maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalar harakat faoliyatini rivojlantirish jarayonini nazariy asoslash haqidagi taxminlarga asoslanadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar kuch (qo'llarda tortilish), tezkorlik (qisqa masofaga yugurish, mokisimon yugurish) va boshqa sifatlar bobida musobaqalashar ekanlar, o'z harakat va imkoniyatlarini baholashga qodir bo'ladilar. Jismoniy rivojlanishdan tashqari, harakatli o'yinlar bolalarda iroda, mardlik, qat'iyatlilik, chidamlilik, jur'at kabi xislatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Bolalar o'zlarining harakatiga bo'lgan ulkan ehtiyojlarini, odatda, o'yinlar vositasida qondirishga urinadilar. Ular uchun o'yin – birinchi navbatda, faoliyat, harakat. Harakatli o'yinlar chog'ida bolalarning harakatlari takomillashadi, tashabbuskorlik va mustaqillik, ishonch va qat'iyat kabi sifatleri rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishning yosh xususiyatlari belgilab berildi, ularni maktabgacha ta'lim muassasasi sharoitida rivojlantirish nazariy hamda tajriba yo'li bilan asoslab beriladi, buning uchun quyidagilar aniqlandi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasida harakatli o'yinlarni qo'llash asosida jismoniy sifatlar jarayonlarni rivojlantirishning yosh xususiyatlari;

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy jismoniy sifatleri orasidagi o'zaro bog'liqligiga doir qonuniyatlar;

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatleri va rivojiga ta'sir o'tkazish tamoyili bo'yicha vosita hamda uslublari.

Demak, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning jismoniy faoliyatini rivojlantirishning yoshga bog'liq xususiyatlari, harakat imkoniyatlari ularning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ularning kichik maktab yoshi davriga o'tish uchun tayyorgarligi sifatini oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh.X. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati" T. O'zDJTI nashriyot. 2005 y.

2. Дьяченко В.К. "Диалоги об образовательных технологиях". М. Школьные технологии, 2000 г.

3. Железняк Ю.Д., Петров П.К. "Основы научно методической деятельности в физической культуре и спорте". Учеб. пособие для студ. ВУЗов. М. Академия, 2002 г.

4. <http://www.satlat.uz>

5. <http://www.ta'lim.uz>



Bolalar ijodiy rivojlanishida pape mashe texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishning didaktik tamoyillari.

Yaqubova M.D.

Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalar ijodiy rivojlanishida pape-mashe texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishning didaktik tamoyillari yoritilgan. Pape-mashe texnologiyasi orqali tarbiyalanuvchilarning estetik didi, amaliy ko'nikmalari va ijodiy fikrlashi shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu texnologiyani o'qitish jarayonida qo'llashda amal qilinadigan asosiy didaktik tamoyillar – ilmiylik, tarbiyaviylik, vizuallik, amaliyot bilan bog'liqlik, individuallashtirish, bosqichma-bosqichlik va ekologiklik tamoyillari ochib berilgan. Maqolada ta'lim samaradorligini oshirishda pape-mashe texnologiyasining ahamiyati, uni tarbiyalanuvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda qo'llashning metodik yondashuvlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: pape-mashe, didaktik tamoyillar, ijodiy rivojlanish, bolalar ijodi, ta'lim texnologiyalari, tasviriy san'at, amaliy mashg'ulot, estetik tarbiya

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri sanaladi. Shu jihatdan, turli amaliy mashg'ulotlar, san'at va qo'l mehnati asosida tashkil etilgan faoliyatlar ayniqsa ahamiyatlidir. Pape-mashe texnologiyasi – ekologik toza, arzon va estetik jihatdan boy bo'lgan san'at turi hisoblanadi. Ushbu texnologiya yordamida tayyorlanadigan ishlanmalar bolalarda tasavvur, tafakkur, sabr, did va mustaqillik kabi sifatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Mazkur maqolada pape-mashe texnologiyasini ta'lim jarayoniga tatbiq etishda amal qilinadigan didaktik tamoyillar tahlil qilinadi va bu texnologiyaning bolalar ijodiy rivojlanishiga ta'siri yoritiladi.

Pape mashe texnologiyalaridagi didaktik asos quyidagi tamoyillarga asoslanadi

Ta'lim mazmunini aniqlash. Pape mashe texnologiyalarining ta'lim mazmuni, tarbiyalanuvchilarga milliy va umumbashariy gumanitar qadriyatlarga asoslangan bilimlarni taqdim etish maqsadida shakllantiriladi. Ushbu texnologiyaning tarixi, uning xalq san'ati va madaniyatidagi o'rni, shuningdek, rivojlanish jarayoni tarbiyalanuvchilarga amaliy, estetik va ma'naviy bilimlarni o'rgatishga xizmat qiladi. Pape mashe texnikasi yordamida shakl va kompozitsiyalar yaratish jarayonida tarbiyalanuvchilar milliy madaniyat va an'analar bilan bog'liq g'oyalarni o'rganib, ularning tafakkuri kengayadi va milliy qadriyatlarni anglash hamda qadrlash hissi

rivojlanadi. Bu yondashuv tarbiyalanuvchilarda nafaqat ijodiy ko'nikmalarni, balki madaniy ongini va estetik didni shakllantirishni ham ta'minlaydi;

Ta'lim jarayonini qonuniyatlarini ochish. "Pape-mashe" texnologiyasi doirasidagi har bir amaliy ish o'ziga xos qonuniyatlar va bosqichlar asosida olib boriladi. Ushbu bosqichlar qat'iy ketma-ketlikda amalga oshiriladi va o'zaro uzviy bog'liq bo'ladi. Tarbiyalanuvchilarni bu qonuniyatlar bilan tanishtirish, har bir bosqichning mohiyatini tushuntirish va amalda qo'llashga o'rgatish orqali ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga erishiladi. Bu jarayon orqali tarbiyalanuvchilarda ijodiy yondashuv, mehnatsevarlik va mas'uliyat hissi mustahkamlanadi. Ta'limning ushbu shakli tarbiyalanuvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy mahoratini ham oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi;

Eng samarali o'qitish usullarini tanlash. "Pape-mashe" texnologiyasini o'rgatishda eng mos va samarali usullarni tanlash muhim ahamiyatga ega. Tarbiyalanuvchilarning ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularga mos didaktik yondashuvlar ishlab chiqilishi lozim. Tarbiyachi amaliy mashg'ulotlarda interaktiv metodlardan foydalanib, tarbiyalanuvchini mustaqil ishlashga yo'naltirishi kerak. Jarayon yakunida birgalikda natijalarni tahlil qilish va ijodiy fikr almashinuvi orqali o'zlashtirish samaradorligini oshiriradi;

Pape mashe texnologiyalariga asoslangan bilimlarni tafakkurga singdirish. "Pape-mashe" texnologiyasi tarbiyalanuvchilarning tafakkurini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Har bir bosqichni izchil bajarish orqali ular o'z faoliyatini tahlil qilish, muammoni hal etish va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga o'rganadilar. Bu jarayon nafaqat amaliy ko'nikmalarni, balki estetik did, tarixiy va madaniy bilimlarni ham singdiradi. Mazkur texnologiya orqali tarbiyalanuvchilar o'z fikr va tasavvurlarini ifodalashni, mustaqil qaror qabul qilishni o'zlashtiradilar. Buning natijasida ularni har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Mavzumizning didaktik ahamiyati shundan iboratki, tarbiyachining ijodiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ta'lim resurslari va sharoitlarni aniqlashga yordam beradi. Bu esa ta'lim jarayonini amaliy va samarali tashkil etishga zamin yaratadi. To'g'ri yondashuv orqali bolalar va ularning ota-onalarida tafakkur, fe'l-atvor va xulqda ijobiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Jarayon nafaqat tarbiyalanuvchilar, balki tarbiyachi va ota-onalar uchun ham ijtimoiy hamda ma'naviy yuksalishga xizmat qiladi. Bolalar esa yangi bilim va ko'nikmalarni egallab, o'z ichki dunyosini boyitadi, emotsional va axloqiy kamolotga erishadi.

Metodlar. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil – bolalar ijodiy rivojlanishi, amaliy san'at, pape-mashe texnologiyasi, maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi bo'yicha ilmiy adabiyotlar o'rganildi va tahlil qilindi.

Ekspperimental kuzatuv – pape-mashe texnologiyasi asosida tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlar orqali 3–7 yoshdagi bolalar ishtirokida kuzatuv olib borildi. *Empirik usullar* – bolalar, ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasida suhbatlar va so'rovnomalar o'tkazildi. Bu orqali bolalarning ijodiy faoliyatga munosabati va o'zgarishlari baholandi.

Didaktik tahlil – ta'lim mazmuni, mashg'ulotlar metodikasi va pedagogik jarayonlarning samaradorligi didaktik tamoyillar asosida baholandi.

Natijalar. 1. *Ijodiy fikrlash va tasavvur*: Pape-mashe texnologiyasi orqali bolalar o'z tasavvurlaridagi obrazlarni real buyumlar shaklida yaratishga harakat qiladilar. Bu jarayonda ularda obrazli tafakkur, o'z fikrini tasviriy vositalar orqali ifoda etish qobiliyati rivojlandi.

2. *Estetik did va go'zallikni qadrlash*: Rang tanlash, shakl va kompozitsiyani joylashtirish orqali bolalar o'zlarining estetik qarashlarini namoyon qiladilar. Bu ularning go'zallikka nisbatan munosabatini shakllantirishda muhim omil sanalinadi.

3. *Nozik motorika va muvofiqlik*: Pape-mashe mashg'ulotlari bolalarning qo'l harakatlari, barmoqlar bilan ishlash, muvozanatni saqlash va aniqlik kabilarni rivojlantirdi. Bu ayniqsa yozuv ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

4. *Ijtimoiy-emotsional rivojlanish*: Guruhda ishlash, ishlanmalarni birgalikda yaratish, ularni taqdim qilish, baham ko'rish orqali bolalarda ijtimoiy faollik, ishonch, hissiyotlarni boshqarish ko'nikmalari shakllandi.

5. *Mustaqillik va ijodiy tashabbus*: Mashg'ulotlarda bolalarning o'z g'oyasini ilgari surish, qaror qabul qilish va o'z ishi uchun javobgarlik hissi ortdi.

Muhokama. Maktabgacha ta'lim jarayonida pape mashe texnologiyalari asosida tarbiyachi ijodkorligini shakllantirishning *didaktik omillari* tadqiqotda quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

"pape-mashe" texnologiyasida ishlashda, tanlanadigan buyumlar bolalarning tushunishiga oson va qiziqarli bo'lishi lozim. Tanlangan narsalar milliy va jahon san'atiga tegishli bo'lishi, ularning rang-barangligi va go'zalligi bolalarga ma'naviy va madaniy bilimlar berishi kerak. Masalan, haykalchalar, niqoblar yoki milliy bezak buyumlari kabi oddiy va yoqimli narsalar bolalarga nafaqat ijodiy ish qilishni, balki tarix va madaniyat haqida bilishni o'rganishga yordam beradi. Bu buyumlar orqali bolalar yangiliklar yaratishni o'rganadilar, har bir asar qanday ma'noga ega ekanligini tushunadilar. Shu bilan birga, ular o'zbek xalqining boy san'atini va jahon madaniyatini qadrlashni o'rganadilar;

umumiy qobiliyatlar barcha bolalarda uchraydi va ularni rivojlantirish yagona metodika asosida olib boriladi. Maxsus qobiliyatlar esa faqat ayrim bolalarda namoyon bo'ladi. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan bolalarga individual yondashuv talab etadi. Ota-onalar va tarbiyachilar bu jarayonda farzandining qiziqishlarini hisobga olib, mos tavsiyalar asosida qo'llab-quvvatlashi bolalarni yanada ijodiy layoqatini ortishiga sabab bo'ladi;

bolalarda ijodiy rivojlanishni shakllantirish masalasi, bolalarda ijodiy rivojlanishni shakllantirish muayyan ta'lim tizimi va zarur infratuzilmaning mavjudligini talab etadi. Bu jarayonda pedagogik shart-sharoitlar, malakali mutaxassislar, samarali boshqaruv va to'g'ri tashkil etilgan ta'lim muhiti muhim sanalinadi. Pedagoglar aniq ijobiy harakati natijasida, tarbiyalanuvchilarda mehnatsevarlik va ijodkorlikni ijobiy tarafga yo'naltirmog'i darkor. Ta'lim tizimining moddiy-texnik bazasi, innovatsion metodlar va texnologiyalarga ochiqligi ham ijodiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Ta'limga doir davlat siyosati va uning maqsadlaridan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilar ta'limi jarayoni tamoyillar asosiga qurilgan bo'lishi darkor. Ta'lim va tarbiya insonparvarlik ruhida, demokratik g'oyalar va refleksiv (o'zini anglashga yo'naltirilgan) faoliyat asosida olib boriladi. Bu jarayonda milliy qadriyatlar bilan bir qatorda umuminsoniy g'oyalar uyg'un tarzda singdirilishi, bolani har tomonlama kamolga yetkazishda muhim omil hisoblanadi. Gumanistik yondashuv tamoyili zahirida bola shaxsiga hurmat, uning erki, huquqlari va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish yotadi. Ta'lim faqatgina bilim berish vositasi bo'lib qolmasdan, balki tarbiyalanuvchining ichki olamini anglash, ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirish va o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan tarbiyachining shaxsiy namunasi, muloyimlik, sabr-toqat, do'stona muloqot va izchil tushuntirish uslubiga bog'liq sanalinadi. Bola ongida ijobiy o'zgarishlar yuzaga kelishi uchun tarbiyachi o'z amaliy harakatlari bilan namuna bo'lmog'i darkor. Ustoz va shogird o'rtasidagi hamkorlik, ishonch va birgalikda faoliyat yuritish ruhida qurilgan muhit tarbiyaning tabiiy davomiyligini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonining samarali bo'lishi uchun bolalarning individual xususiyatlarini -aqliy salohiyati, qiziqishlari, qobiliyatlari va psixologik holatini inobatga olish talab etiladi. Bu esa har bir bola uchun mos o'quv-muhit va sharoit yaratishni taqozo etadi. Pedagogik faoliyatda bola iste'dodini erta aniqlash, uni qo'llab-quvvatlash, ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish eng dolzarb vazifalardan biridir. Har bir tarbiyalanuvchining noyobligini e'tiborga olish, ularning ruhiy va hissiy ehtiyojlariga mos yondashuvni belgilash, bolaning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunda zamonaviy interfaol metodlar, ko'rgazmali vositalar, AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) vositalari, yangi pedagogik texnologiyalar hamda o'yin, suhbat, guruhish kabi faol yondashuvlar muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Barcha ta'limiy faoliyat uzluksizlik, tizimlilik, rejalilik va ilmiylik kabi metodologik prinsiplar asosida tashkil etilishi, bola shaxsining ehtiyoj va imkoniyatlariga mos ravishda olib borilishi zarur. Tarbiyachilar bolalarning fikrlarini tinglash, ularning istak va qarashlarini anglash orqali ichki motivatsiyani yuzaga chiqarishlari kerak. Amaliy tajribalar, ijtimoiy tarmoqlarda yoritilgan real holatlar ham shuni ko'rsatadiki, bolalar bilan



samimiy va ochiq muloqot, ularning fikrlarini inobatga olish ta'lim samaradorligini oshiradi.

Xulosa

Pape-mashe texnologiyasining ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda yuqori samara beradi. Bu texnologiya bolalarda estetik did, obrazli fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, jamoada ishlash va o'z g'oyasini real shaklda ifoda etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Agar mashg'ulotlar didaktik tamoyillar asosida tashkil etilsa, pape-mashe nafaqat san'at faoliyati balki kompleks rivojlantiruvchi ta'limiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimiga pape-mashe texnologiyasini keng miqyosda joriy etish, bu borada metodik qo'llanmalar ishlab chiqish va tarbiyachilar malakasini oshirish dolzarb masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdinabiyeva R.G'. "Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni namoyon bo'lishi". 2022-yil 1130-bet
2. Abdullajonova Dildora Rustamjonovna Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy ruxda tarbiyalashning ilmiy-metodik jihatlari. 2023-yil 147-bet
3. Albert, Ket. Yapon o'g'il va qiz qog'ozli qo'g'irchoqlari Nyu York: Dover publications, Inc 1991 yil
4. Цветхова Лариса Викторовна педагогические особенности дополнительного образования в области художественного образования развития учащихся. Москва 1999.20.c
5. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kreativligini oshirish Sobirjonova Muslima
6. Gnatko N.M. Ijodkorlik muammosi va taqlid hodisasi / N.M.Gnatko; Ros. An, in-t psixologiyasi. Moskva ipan, 1994 yil. 43s.
7. Брикина Е.К. формирование творчеств у детей An, in-t psixologiyasi Moskva: ipan, 1994-yil 43s.
8. Кожанов А.А Внешность как фактор этнического споставления



PROSTATA BEZI XAVFSIZ GIPERPLAZIYASI PROFILAKTIKASINI AUGMENTED REALITY TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Xo'jamberdiyev O'tkirbek Egamberdi o'g'li

xojamberdiyevotkirbek@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola PBXG profilaktikasi va diagnostikasida AR texnologiyasining innovatsion pedagogik imkoniyatlarini tahlil qiladi. Holo-prostata interfaol 3D-modellari yordamida talabalar prostata anatomiyasi va funktsiyalarini virtual muhitda o'rganadi. AR bilan ta'lim metodikasi (test indikatorlari, diagnostika aniqligi, motivatsiya) an'anaviy usullarga nisbatan yaxshilanganligi statistik jihatdan isbotlangan. Xalqaro platformalarda AR-ta'lim samaradorligi yuqori ekani, MDH va O'zbekistonda bu imkoniyatlarning boshlanish bosqichida ekanligi taqqoslanadi.

Kalit so'zlar: Augmented Reality (AR), prostata bezi xavfsiz giperplaziyasi, tibbiyot ta'limi, interfaol 3D modellari, diagnostika aniqligi, PBXG profilaktikasi.

PBXG — erkaklar orasida keng tarqalgan kasallik bo'lib, prostata bezining stromal va epithelial hujayralarining gipoplaziyasi natijasida yallig'lanish va siydik chiqarish buzilishiga sabab bo'ladi. AR texnologiyasi esa tibbiyotda murakkab anatomik strukturani intuitiv o'qitishni ta'minlaydi.

AR texnologiyasining jahon tajribasida Nelson N.Stone, MD, AR va XR texnologiyalarini urologik treninglarda mixed-reality konsepsiyasida qo'llab, transperineal biopsiya va renal punksiya kabi jarayonlarda amaliy samaradorlikni ko'rsatgan. Arning tibbiy jarayonlarda qo'llanishi, masalan, digital rectal examinatsiyalarni AR modifikatsiyalash orqali chuqurroq anatomik tasavvur hosil qilganligi Gaith orqali isbotlangan.

O'zbekiston va MDH kontekstida AR bilan PBXG bo'yicha pedagogik modul ishlab chiqildi. Unity asosida HoloLens bilan integratsiya qilingan holo-prostata modeli yaratildi. Talabalar uchun protokol: pre-test, AR-dars, post-test; diagnostika aniqligi, motivatsiya va interfaol kechinmalar baholandi.

1. AR-tajriba guruhi diagnostika aniqligi +30 % ($p < 0.01$).

2. Test ballari +25 % ($p < 0.05$).

3. Talabalar AR semestri keyingi darslar uchun motivatsiyasi +40 %.

Global AR tibbiyot natijalari bilan mos – 93 % samaradorlik jihatidagi yutuqlar, Google Glass'li AR jarrohlik treninglari 20–30% tezlikda o'sish kuzatilgan. MDHda esa HoloDoctor tizimi jarrohlik mashg'ulotlarini +25 % tezlashtirgan.

AR mexanizmi murakkab fiziologik komponentlarni 3D tarzda interfaol o'rgatadi, xar bir segment (stromal massaning o'sishi, uretra, patent markerlar) uchun real vaqtli vizual niqob taqdim etadi. Bu AR tibbiyot

ta'limidagi yangi paradigm bo'lib, PBXG diagnostik savodxonlikni oshirishi, talabalarga klinik qaror qabul qilishni soddalashtiradi.

- Holo-prostata AR-tizimi an'anaviy ta'lim bilan taqqoslaganda PBXG o'qituvchilarga aniq va intuitiv vosita sifatida foyda beradi.
- AR integratsiyasi MDHda yurak urishi kabi pilot loyihalardan klinikalarga kengaytirilishini tavsiya qilinadi.
- O'zbekistonda tibbiyot fakultetlarida AR kabinetlari ochilishi, AR modulini DISIM fakultetlari bilan ilmiy integratsiya qilinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Stone N.N. "Integration of Augmented Reality (AR) and Extended Reality (XR) into Urology Training and Practice." *Grand Rounds in Urology*, 24-yanvar 2023.
2. Velazco-Garcia J.D., Navkar N.V., Balakrishnan S. va boshqalar. "Evaluation of how users interface with holographic augmented reality surgical scenes: Interactive planning MR-Guided prostate biopsies." *International Journal of Medical Robotics and Computer Assisted Surgery*, oktabr 2021.
3. Bettati P., Dormer J.D., Shahedi M., Fei B. "An Augmented Reality-Assisted Visualization System for Potential Applications in Prostate Biopsy." *Proceedings SPIE*, fevral-mart 2022.
4. Wilson M., Griffith S., Kim L., Stone N.N. va boshqalar. "Remote training for surgical procedures using augmented reality: insertion of a hydrogel rectal spacer." *The Journal of Urology*, 2022.
5. Mojica C.M.M. va boshqalar. "A Prototype Holographic Augmented Reality Interface for Image-Guided Prostate Cancer Interventions." *Eurographics Proceedings*, 2018. Bu interfeys MRI va AR ni birlashtirib.
6. Wikipedia maqolasi "Augmented reality-assisted surgery".



Bola tug'ilishi bilan bog'liq to'y qo'shiqlarining badiiy xususiyati

Kasimova Zuxraxan Fatxiddinivna

ADU tadqiqotchisi

Annotatsiya: To'y odatda odamlarning xursandchiliklari, oila tarkibidagi ijobiy o'zgarishlarni jamoa bo'lib nishonlashga qaratilgan tadbirdir. Ma'lumki, o'zbek xalqida to'ylar bola tug'ilishi, bolaning sunnat qilinishi va nikoh qurish bilan bog'liq holda uch ko'rinishda amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: to'y, oila, obraz va obrazlashish jarayoni, badiiyat, og'zaki ijod namunalari

Jamoaviy nishonlanadigan to'y marosimlari jarayonida ijro etiladigan og'zaki ijod namunalari to'y marosimlari folklorini tashkil etadi. Har qanday marosim jarayonida ijro etiladigan, badiiy-estetik talablarga javob beradigan aytimlarda obraz va obrazlashish hodisasini kuzatishimiz mumkin.

Biz o'zbek xalq to'ylari tarkibiy bosqichlari va amalga oshirish qonuniyatlariga muvofiq dastlab Farg'ona vodiysi beshik to'yi bilan bog'liq folklor janrlari badiiyatida obraz va obrazlashish jarayonini tahlilga tortishni lozim topdik. 2022-yilda Andijon viloyatining Shahrison tumanidagi Cho'ja QFY Obihayot ko'chasida yashovchi, 1942-yilda tug'ilgan Akbarova Sottixon ayadan yozib olingan "Alla" aytimi matniga e'tiborni qaratmoqchimiz:

Gul sariq, rangim sariq,
Bolajonim, alla,
Sarg'ayganim kim bilar,
Qo'zichog'im, alla.
Hasrat-u armonlarim,
Alla bolam, alla,
Jon berganim kim bilar,
Shirin bolam, alla.

Allada ona sariq gulga mengzanadi. U nega sarg'ayadi? Onaning sarg'ayishi – yaratgandan farzand tilab yolvorgani. Sariq rang iltijo, yalinish, tilanish, o'tinch, umid timsolidir. U farzandsizlikdan ko'p qiynalgan. Sarg'ayib iltijo qilishlari natijasida yotgan farzandini erkalab allalamoqda. Shuningdek, ona farzandiga o'z nolalarini ochiqalaydi: "*hasrat-u armonlari*", "*jon olib, jon bergani*" faqat o'zi va xudogagina ayonligini dardi hol qilmoqda. Mazkur allada lirizm – aytuvchining ichki kechinmalaridan farzand ovutishi maqsadida ifodalanmoqda. Shuningdek, mazkur ijrochi tomonidan ijro etilgan alla matnida xalq qo'shiqlari ohangida an'anaviy qofiyalanish (*gul sariq, rangim sariq*) ko'zga tashlanadi. Ayni shu matndagi sariq rangning mifologik mohiyatini ochishda shuni angladikki, rangi zafaron qiynalgan Ona – alla ijrochisi, u farzand tilab tangriga yolvorgan, farzandi uchun ikki olam orasida jon olib, jon bergan munis ayol qiyofasida namoyon bo'ladi. Alla matni davomida tasvirga qo'shimcha obrazlar kirib keladi:

Ariqlar bo'yida rayhon,
Jonim bolam, alla,
Tegmay o'ting shoxlariga,
Qo'zichog'im, alla.
Rayhondayin to'lg'onaman,
Asal bolam, alla,
Yuragimning ohlariga,
Jonim bolam, alla.

Ariq bo'yida o'sadigan rayhon lirik qahramon tomonidan prototip sifatida tanlanadi. U o'zini rayhonga o'xshatadi. Rayhonning shoxlariga tegmay o'tish lozim, aks holda u o'z muattar hidlarini taratgani singari ona ham unga tegib ketsangiz o'z dardlarini to'kib soladi. Ona rayhon singari to'lg'onadi, buning sababi – uning yuragidagi dard-u hasratlari. Xalqimiz orasida “rayhon – behisht guli”, degan qarashlar mavjud. Onani rayhonga qiyoslanishining yana bir jihati uning tug'ruq oldi ikki olam orasidan qaytganligini ham ifodalaydi. Jannat guli bo'lgan rayhon, ya'ni ona bilan alla mazmuniga jannat mevasi bo'lgan farzand obrazi parallel kirib keladi. Farzand tinch sokin uxlayotgan *shirin, jon, asal* singari ona uchun aziz bo'lgan go'dakning lirik makondagi talqini sifatida tilga olinadi. Bola onaning hasratli allalarini tinglab orom olishi, uxlashi talab etiladi:

Allalar aytsam uxlagin,
Jonim bolam, alla,
Uxlab turib o'ynagin,
Qo'zichog'im, alla.

Mazkur qo'shiqda bola obrazining turli sifatlashlar bilan tavsiflanishini kuzatamiz. Avvalo bola onaning joni sifatida tilga olinadi. Bola ona uchun yuqorida aytganimizdek *shirin* va totli *asal, jon* singari jonidan ham aziz. U onasining butun borlig'i, boyligi, orzulari, umidlari, quvonchi, bir so'z bilan aytganda hayotining mazmuni. Alladagi talqinda bola obrazi uxlaganda shiringina, asal bo'lib orom oladigan, uyg'onganda qo'zichog' singari quvnab o'ynaydigan bola sifatida talqin etiladi. Rus bolalar folklori materiallarini tadqiq etgan V.P.Anikin, V.A.Vasilenko, O.I.Kapitsa, E.S.Litvin, A.N.Martinova, M.N.Melnikovlar alla onalarning bolalarini uxlatishidagi sehrli qo'shiq ekanligi va u afsunlarga yaqin ekanligini ta'kidlaydilar⁸. Darhaqiqat, ona allasida sehr bor. Onaning uyqusirayotgan bolasiga “alla” so'zini ijro etishi bilan bolaning ruhiyatiga ta'sir qiladi va bola uyquga ketadi. M.N.Melnikov o'zining “Xalq pedagogikasi va bolalar folklori” nomli tadqiqotida “Alla nafaqat bolalarni

⁸ Аникин В.П. Русские народные пословицы, поговорки, загадки и детский фольклор. – М.: Учпедгиз, 1957. – 240 с.; Василенко В.А. Детский фольклор. – В кн.: Русское народное поэтическое творчество. – М.: Русское народное поэтическое творчество, 1978. – 132 с.; Капица О.И. Детский фольклор. – Л.: Прибой, 1928. – 222 с.; Литвин Э.С. К вопросу о детском фольклоре. – В кн.: Русский фольклор. Вып. III – М. Л.: 1958. – С.92-102.; Мартынова А.Н. Опыт классификации русских колыбельных песен. – Советская этнография, 1974, № 4; Мельников М.Н. Русский детский фольклор Сибири. – Новосибирск: Зап. Сибирь, 1970. – 218 с.; Мельников М.Н. Детский фольклор и проблемы народной педагогики. – В кн.: Сибирский фольклор. Вып. II. – Новосибирск, 1971.

uxlashga undovchi, balki uni tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Bolaga alla orqali estetik tarbiya singdiriladi", deb hisoblaydi⁹. Bizningcha, allaning poetik vazifalari avvalo bolaga orom olishi uchun xizmat qilish bo'lsa, ikkinchidan, bolaning dunyoni tanishiga xizmat qiladi; uchinchidan, bolada tafakkurni shakllantiruvchi muhim vosita sifatida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Аникин В.П. Русские народные пословицы, поговорки, загадки и детский фольклор. – М.: Учпедгиз, 1957.
2. Василенко В.А. Детский фольклор. – В кн.; Русское народное поэтическое творчество. – М.: Русское народное поэтическое творчество, 1978.
3. Капица О.И. Детский фольклор. – Л.: Прибой, 1928.
4. Литвин Э.С. К вопросу о детском фольклоре. – В кн.: Русский фольклор. Вып. III – М. Л.: 1958.
5. Мартынова А.Н. Опыт классификации русских колыбельных песен. – Советская этнография, 1974, № 4;
Obligatsiyalar: Mulkni egallamagan holda qarz berish huquqini beruvchi instrumentlar. Obligatsiyalar davlat yoki xususiy sektor tomonidan chiqariladi va ma'lum muddat ichida foiz to'lovi bilan birga qaytarilishi kutiladi.

Mutual fondlar: Investorlar tomonidan birlashtirilgan mablag'lar asosida faoliyat yurituvchi fondlar. Bu fondlar professional menejment orqali diversifikatsiya qilingan investitsiyalarni amalga oshiradi.

Xalqaro fond bozorlari quyidagi segmentlardan iborat:



- **Birja bozori** – aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar bilan rasmiy savdo amalga oshiriladigan maydon (masalan, NYSE, LSE, TSE).¹⁰
- **Birjadan tashqari (OTC) bozor** – ikki tomonlama kelishuv asosida derivativlar, svoplar yoki opsiyonlar bilan bitimlar tuziladigan tizim.
- **Derivativlar bozori** – kelajakdagi narxlar o'zgarishiga qarshi sug'urta vazifasini bajaruvchi moliyaviy instrumentlar bozoridir.
- **Valyuta bozori bilan integratsiyalashgan fond segmentlari**, bu yerda xalqaro kapital oqimlari transchegaraviy operatsiyalar orqali harakat qiladi.

1-jadval

Global fond bozorlari kapitalizatsiyasi (2023–2025-yillar):

Mamlakat / mintaq	2023 (trln \$)	2024 (trln \$)	2025 (trln \$)	O'sish (%)
AQSh	46.2	49.5	52.0	+12.5
Xitoy	11.8	12.7	13.4	+13.6
Yaponiya	6.0	6.3	6.7	+11.6
Yevropa Ittifoqi	8.4	8.8	9.2	+9.5
Boshqa davlatlar	36.1	38.1	39.0	+8.0

Xalqaro fond bozorining yirik ishtirokchilari bo'yicha kapitalizatsiya o'sish dinamikasi¹¹

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, AQSh fond bozori hali ham jahon kapital bozorining eng yirik segmenti hisoblanadi – 2025-yilda u umumiy hajmning 43 foizini tashkil etdi. Xitoy va Yevropa Ittifoqi bozorlarida esa barqaror, ammo nisbatan past o'sish kuzatilmoqda.¹² Boshqa davlatlar, jumladan Janubi-Sharqiy Osiyo va Markaziy Osiyoda o'sish sur'ati tezroq, bu esa yangi rivojlanayotgan fond bozorlarining shakllanayotganini ko'rsatadi.

Xalqaro fond bozorida amalga oshiriladigan operatsiyalar

Xalqaro fond bozori faoliyati turli moliyaviy operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Ular quyidagi asosiy yo'nalishlarga bo'linadi:

1. **Birlamchi operatsiyalar (Primary market operations)** – yangi aksiyalar va obligatsiyalar chiqarish orqali kapital jalb qilish. Misol uchun, 2025-yilda global IPO (birlamchi aksiyalar joylashtirish) hajmi 410 milliard dollarga yetdi.¹³
2. **Ikkilamchi operatsiyalar (Secondary market operations)** – ilgari chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning birjalarda qayta sotilishi.

¹⁰ OECD. (2023). *Stock Exchange Infrastructure and Market Development*.

¹¹ (Manba: World Federation of Exchanges, 2025)

¹² Deloitte. (2025). *Global Investment Trends 2025*.

¹³ PwC. (2024). *IPO Watch Global 2024*.

Bu bozorning likvidligini ta'minlaydi va investorlar uchun chiqish mexanizmini yaratadi.

3. **Derivativ operatsiyalar** – f'yuchers, opsiya va svop shartnomalari orqali risklarni boshqarish.

IMF (2024) ma'lumotiga ko'ra, derivativlar bozori hajmi 1,2 kvadrillion dollardan oshgan.

4. **Kross-valyuta svoplari va obligatsiyalar bilan spekulativ bitimlar** – bu xalqaro investorlarga risk diversifikatsiyasi va yuqori daromad olish imkonini beradi.

Fond bozorida operatsiyalarni amalga oshiruvchi asosiy ishtirokchilar:

- **Emitentlar** – qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchi kompaniyalar yoki davlat organlari;
- **Investorlar** – jismoniy shaxslar, investitsiya fondlari, pensiya fondlari va banklar;
- **Vositalar** – brokerlik kompaniyalari, dilerlar, kliring markazlari;
- **Regulyatorlar** – xalqaro moliya markazlari, masalan, *SEC (AQSh)*, *FCA (Buyuk Britaniya)*, *ESMA (Yevropa Ittifoqi)*.

Operatsiyalar hajmining o'sishi investor ishonchining ortganini bildiradi. Bu esa moliyaviy barqarorlikni mustahkamlab, global kapital oqimlarini jonlantiradi. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda (2023–2025-yillar) fond bozori tranzaksiyalari hajmi 25 foizdan ortiq oshgan.


O'zbekistonning xalqaro fond bozoridagi ishtiroki va istiqbollari

O'zbekistonning xalqaro fond bozoriga chiqishi 2019-yilda "Eurobond" emissiyasi bilan boshlandi. 2025-yil holatiga ko'ra:

- "Eurobond" hajmi 3,5 milliard dollarga yetgan;
- Toshkent fond birjasida 200 dan ortiq emitent ro'yxatdan o'tgan;
- Kapital bozorida xorijiy investorlar ulushi 15 foizga ko'tarilgan;
- Elektron savdo tizimlari to'liq joriy etilgan.

Quyidagi diagramma xalqaro fond bozori kapitalizatsiyasining 2020–2025-yillardagi o'sishini aks ettiradi:

1-chizma. Xalqaro fond bozori kapitalizatsiyasi (2020–2025, trln AQSh dollari)



Grafikdan ko'rinib turibdiki, 2020-yildan 2025-yilgacha xalqaro fond bozori kapitalizatsiyasi 35 foizga oshgan. Bu davrda raqamli texnologiyalar, ESG (environmental, social, governance) investitsiyalar va yangi IPOlar asosiy drayverlar sifatida maydonga chiqdi. O'zbekiston misolida ham 2024-yildan boshlab davlat va xususiy sektorga tegishli aksiyalar savdosi hajmi 60 foizga oshgan. Bu mamlakatning moliyaviy integratsiyasini chuqurlashtirayotganini bildiradi.

Xulosa

Xalqaro fond bozori investorlar uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi, lekin bu jarayonda xavflar ham mavjud. Tezida ko'rsatib o'tilganidek, investorlar uchun diversifikatsiya va o'sish imkoniyatlari taqdim qilinadi, biroq valyuta, siyosiy va iqtisodiy xavflar ham ko'rib chiqilishi lozim. Shuningdek, muammolarni hal etish va bozorni yanada rivojlantirish uchun regulatsiyalarning yaxshilanishi zarur.

Xalqaro fond bozorlari bugungi kunda global moliyaviy tizimning yuragi sifatida faoliyat yuritmoqda. Bozor operatsiyalari kapital oqimlarini erkinlashtiradi, investitsiyalarni ko'paytiradi va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekistonning xalqaro fond bozoriga chiqishi milliy iqtisodiyot uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, risklarni boshqarish, investitsion muhitni yaxshilash va moliyaviy savodxonlikni oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida quyidagi chora-tadbirlar muhim:

- xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikni kengaytirish;
- korporativ boshqaruv va shaffoflik standartlarini kuchaytirish;

- raqamli fond bozorini rivojlantirish;
- xalqaro investorlar ishtirokini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

World Bank. (2025). *Global Capital Markets Outlook 2025*. Washington, D.C.

IMF. (2024). *Financial Stability and Global Capital Flows*. New York.

World Federation of Exchanges. (2025). *Annual Statistics Report*. Geneva.

OECD. (2023). *Cross-Border Investment and Stock Market Development*. Paris.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). *Moliyaviy bozorlarning integratsiyasi bo'yicha tahliliy sharh*. Toshkent.

BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD). (2024). *Jahon investitsiya hisobot 2024*. Nyu-York – Jeneva.

Osiyo taraqqiyot banki. (2025). *Markaziy Osiyoda kapital bozorlari islohotlari*. Manila.

Deloitte. (2025). *Global Investment Trends 2025*. London.

Nasdaq Data Insights. (2025). *International Market Activity Report*. New York.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). *O'zbekiston kapital bozori rivojlanish strategiyasi*. Toshkent.



AN'ANAVIY HAMDA ONLAYN BANKLAR FAOLIYATI**Anvarov Nozimjon Maxsudbek o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti

"Mutaxassislik, ijtimoiy –gumanitar

va aniq fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi

nozimanvarov40@gamil.com Tel:(+99897)-988-22-77**Karimjonov Oxunjon Alisher o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti

"Moliya va moliyaviy texnologiyalar"

yo'nalishii 4-bosqich talabasi

oxunjonkarimjonov100@gmail.com Tel:(+99899)-985-11-00

Annotatsiya Ushbu maqolada banklar faoliyatining onlayn va an'anaviy shakllarining afzalliklari va kamchiliklari taqqoslanadi. An'anaviy banklar uzoq yillik tajribaga ega bo'lib, mijozlarga shaxsiy xizmat va ishonchni ta'minlaydi. Biroq, onlayn banklar tezlik, qulaylik va kam xarajatlar taklif etadi. Tadqiqot davomida ko'plab insonlarning fikrlari va tajribalari asosida har ikki bank faoliyati turining o'ziga xos jihatlari aniqlangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, har ikki usul o'z o'rniga ega va kelajakda banklar o'z xizmatlarini raqobatbardosh qilish uchun onlayn va an'anaviy xizmatlarni birlashtirishga harakat qilishlari lozim.

2025-yilda bank tizimining raqamli transformatsiyasi jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Onlayn banklar soni ortib, moliyaviy xizmatlarning 70 foizdan ortig'i raqamli kanallar orqali amalga oshirilmoqda. Maqolada an'anaviy va onlayn banklar faoliyatining o'zaro farqlari, O'zbekistonda raqamli banklarning rivojlanish omillari hamda kelgusidagi istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar Onlayn bank, An'anaviy bank, Raqamli iqtisodiyot, Fintech, Raqamli to'lovlar, Bank transformatsiyasi, O'zbekiston bank tizimi.

Аннотация В данной статье проводится сравнительный анализ традиционных и онлайн-банков, а также их преимуществ и недостатков. Традиционные банки отличаются многолетним опытом и высоким уровнем доверия, тогда как онлайн-банки обеспечивают удобство, скорость и низкие операционные издержки. В 2025 году процесс цифровой трансформации банковской системы вышел на новый этап, и более 70% финансовых операций совершается через цифровые каналы. Результаты исследования показывают, что в будущем банки должны стремиться к интеграции онлайн- и традиционных услуг для повышения конкурентоспособности.

Ключевые слова: Традиционные банки, Онлайн-банки, Цифровая трансформация, Финтех, Банковская система, Конкурентоспособность.

Abstract This article compares the advantages and disadvantages of traditional and online banking systems. Traditional banks are characterized by long-standing experience and customer trust, while online banks offer greater convenience, speed, and lower operational costs. In 2025, the digital transformation of the banking sector reached a new stage, with over 70% of financial services being conducted through digital channels. The findings suggest that, in the future, banks should aim to integrate both traditional and online services to enhance competitiveness and customer satisfaction.

Keywords: Traditional banks, Online banks, Digital transformation, Fintech, Banking system, Competitiveness.

Kirish. Banklar iqtisodiyotning muhim komponentlaridan biridir. Ular nafaqat pul ishlab chiqarish va saqlash, balki moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda ham

muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda texnologiyalarning rivojlanishi bilan onlayn banklar paydo bo'ldi, bu esa an'anaviy bank faoliyatiga ta'sir ko'rsatdi. Ushbu tezisning maqsadi onlayn va an'anaviy bank faoliyatining afzalliklari va kamchiliklarini taqqoslashdir.

2025-yilga kelib, bank tizimining raqamli transformatsiyasi jahon miqyosida strategik ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Deloitte (2025) hisobotiga ko'ra, global bank mijozlarining 82 foizi endilikda onlayn xizmatlardan foydalanmoqda, ularning 56 foizi esa mobil ilovalar orqali tranzaksiyalarni amalga oshiradi. O'zbekiston bank tizimi ham ushbu o'zgarishlarning ajralmas qismiga aylandi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra (2025), mamlakatda 35 ta tijorat banki faoliyat yuritmoqda, ulardan 7 tasi to'liq raqamli model asosida ishlaydi (TBC Bank, Uzum Bank, Anorbank, Apelsin, ZoodPay Bank va boshqalar). 2024-yilda O'zbekistonda raqamli tranzaksiyalar hajmi 92 trillion so'mni tashkil etgan, bu 2022-yilga nisbatan 2,7 barobar ko'pdir. Mobil bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni esa 2025-yil boshida 13,2 million kishiga yetdi.

Bank faoliyatining tarixi: An'anaviy banklar o'z faoliyatini 17-asrdan boshlab boshladilar. Ular asosan pul saqlash va kredit berish bilan shug'ullangan. An'anaviy banklarda mijozlar bilan shaxsiy aloqalar muhim ahamiyatga ega edi, bu esa mijozlar ishonchini oshirgan. Onlayn banklarning paydo bo'lishi: 1990-yillarda internetning rivojlanishi bilan, onlayn banklar xizmat ko'rsata boshladi. Bu banklar mijozlarga qulayliklar va tezlik taklif etadi. Onlayn banklar o'z mijozlariga mobil ilovalar va veb-saytlar orqali 24/7 xizmat ko'rsatadi, bu esa ularni an'anaviy banklarga nisbatan yanada jozibador qiladi. Mavjud tadqiqotlar: Turli tadqiqotlar onlayn banklarning o'sishi va ularning an'anaviy banklardan ustunliklarini ko'rsatmoqda. Masalan, 2021 yilda o'tkazilgan tadqiqotda, respondentlarning 70% dan ortig'i onlayn bank xizmatlaridan foydalanishni afzal ko'rishini bildirgan. Biroq, an'anaviy banklarning shaxsiy xizmatlari va ishonch hissi ham ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot bo'yicha ko'plab so'rovnmalar o'tkazilgan. Bank mijozlari orasida onlayn va an'anaviy banklardan foydalanish tajribalari haqida ma'lumot to'planadi. Shuningdek, banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari va mijozlarning qoniqish darajalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ko'plab respondent ishtirok etadi, bu esa natijalarni yanada ishonchli qildi.

Onlayn banklarning afzalliklari:

- 24/7 xizmat ko'rsatish: Mijozlar istalgan vaqtda bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega. O'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 65% dan ortig'i onlayn banklardan foydalanishning qulayligini ta'kidlaydi. Tez va qulay tranzaksiyalar: Onlayn platformalar orqali tezda pul o'tkazish va to'lovlar amalga oshirish mumkin. Mijozlar uchun bu jarayon 30-40% tezroq amalga oshadi. Kam xarajatlar: Onlayn banklar an'anaviy banklarga nisbatan kamroq xarajat talab qiladi. Masalan, onlayn banklar odatda yuqori foizli depozitlar taklif etadi, bu esa mijozlarga ko'proq foyda keltiradi.

An'anaviy banklarning afzalliklari:



- Shaxsiy xizmat va maslahatlar: Mijozlar bank xodimlaridan shaxsiy maslahatlar olish imkoniga ega. Bu xizmatlar ko'pincha murakkab moliyaviy masalalarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

- Mijozlar ishonchi: An'anaviy banklar uzoq yillik tajribaga ega bo'lib, mijozlar orasida ishonch hosil qiladi. O'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 80% dan ortig'i an'anaviy banklarga ishonch bildirishini ma'lum qilgan.

- Xavfsizlik hissi: Ko'plab mijozlar uchun bankka borish, pulni qo'lga olishdan ko'ra xavfsizroq tuyulishi mumkin. An'anaviy banklar ko'pincha xavfsizlik choralari e'tibor qaratadi.

Kamchiliklar:

- Onlayn banklar uchun xavfsizlik muammolari: Kiberxavfsizlik tahdidlari onlayn banklar uchun muammo bo'lishi mumkin. O'rganish natijalari ko'rsatdiki, respondentlarning 45% dan ortig'i onlayn banklardan foydalanishdagi xavfsizlikka shubha bildirgan.

- An'anaviy banklarda uzoq kutish: Mijozlar an'anaviy banklarda ko'pincha uzoq vaqt kutishlari kerak bo'ladi, bu esa xizmat ko'rsatish samaradorligini pasaytiradi.

Banklar tizimining raqamli transformatsiya jarayoni

Raqamli transformatsiya – bu banklarning ichki jarayonlari, mijozlar bilan o'zaro aloqasi va mahsulotlarini texnologik asosda yangilash jarayonidir. 2025-yilda raqamli transformatsiya banklar uchun raqobat ustunligini belgilovchi asosiy omilga aylandi.

Ananaviy va onlay banklarning taqqoslanishi

Ko'rsatkichlar	An'anaviy bank	Onlayn bank
Xizmat shakli	Filiallar orqali	Mobil ilovalar orqali
Xarajatlar	Yuqori	Past
Xizmat tezligi	O'rtacha	Juda yuqori (24/7)
Mijozlar soni (2025)	22,5 mln	13,2 mln
Innovatsion texnologiyalar	Cheklangan	Fintech asosida
Xizmat narxi	O'rtacha	20–25% arzonroq

O'zbekistonda onlay banklarning rivojlanish omillari


O'zbekiston moliya tizimida onlayn banklarning jadal rivojlanishiga quyidagi omillar sabab bo'ldi: yangi qonunchilik bazasi (2024-yil), raqamli to'lov tizimining kengayishi, 5G qamrovi va fintech startaplarning faollashuvi. Natijada, O'zbekiston raqamli moliyaviy xizmatlar indeksi bo'yicha Jahon banki reytingida 2025-yilda 47-o'rinni egalladi.

Onlay kreditlash va fintech integratsiyasi

2024-yildan boshlab O'zbekistonda onlayn kreditlash tizimi faol yo'lga qo'yildi. Masalan, Uzun Bank "Buy now, pay later" tizimini joriy etdi, Anorbank esa kreditlarni sun'iy intellekt orqali baholashni boshladi.

1-chizma. O'zbekistonda onlayn bank foydalanuvchilari sonining o'sish dinamikasi (2018–2025)

1-chizma. O'zbekistonda onlayn bank foydalanuvchilari sonining o'sish dinamikasi (2018–2025)



Diagrammadan ko'rinib turibdiki, 2018–2025 yillar oralig'ida raqamli bank foydalanuvchilari soni **11 baravar oshgan**. Bu O'zbekiston aholisi orasida onlayn moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonch ortayotganidan dalolat beradi.

Xulosa. An'anaviy va onlayn banklar faoliyatidagi farqlar tobora kamayib, ularning o'zaro integratsiyasi kuchaymoqda. Onlayn banklar innovatsion texnologiyalar asosida yangi xizmatlarni joriy qilayotgan bo'lsa, an'anaviy banklar raqamli platformalar orqali o'z mijozlar bazasini kengaytirmoqda.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, har ikki bank faoliyati turi o'z o'rniga ega. Onlayn banklar tezlik va qulaylik taklif etadi, an'anaviy banklar esa shaxsiy xizmat va ishonchni ta'minlaydi. Mijozlar o'z ehtiyojlariga qarab tanlov qilishlari kerak. Kelajakda banklar o'z xizmatlarini yanada raqobatbardosh qilish uchun onlayn va an'anaviy xizmatlarni birlashtirishga harakat qilishlari lozim. Masalan, an'anaviy banklar onlayn xizmatlarni rivojlantirish orqali mijozlar qoniqishini oshirishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2025). Digital Transformation in the Banking Sector: Annual Report 2025. Toshkent.
2. Deloitte. (2025). Global Digital Banking Outlook 2025. Deloitte Insights.
3. PwC. (2024). Digital Finance and Open Banking in Central Asia.
4. UNCTAD. (2024). World Investment Report 2024: Financial Technology and Development.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–120-son Farmoni (2024-yil 12-aprel). Bank sektorini raqamlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida.
6. Uzum Bank. (2025). Financial and Technological Review 2025.
7. World Bank. (2025). Digital Economy in Emerging Markets: Uzbekistan Country Update.
8. TBC Bank Uzbekistan. (2025). AI and Fintech Integration in Banking Services.

JAHON VALYUTA TIZIMI VA UNING RIVOJLANISHI**Anvarov Nozimjon Maxsudbek o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti

"Mutaxassislik, ijtimoiy –gumanitar

va aniq fanlar" kafedrası katta o'qtuvchisi

nozimanvarov40@gamil.com Tel:(+99897)-988-22-77**Nazirov Otashinxoja Hayrullo o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti

"Moliya va moliyaviy texnologiyalar"

yo'nalishii 4-bosqich talabasi

xojanzirov@gmail.com Tel:(+99891)-487-13-73

Annotatsiya Ushbu maqolada jahon valyuta tizimining tarixiy shakllanish bosqichlari, hozirgi davrdagi transformatsiya jarayonlari hamda raqamli valyutalarning global iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda Bretton-Vuds, Yamayka va hozirgi zamonaviy tizimlarning o'ziga xos jihatlari solishtirilib, 2025-yil holatiga ko'ra xalqaro valyuta bozoridagi ulushlar statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, maqolada raqamli valyutalar (CBDC va stablecoinlar)ning xalqaro to'lov tizimlariga integratsiyasi ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Valyuta tizimi, Rezerv valyuta, Xalqaro to'lovlar, Bretton-Vuds, Raqamli valyuta, CBDC, Dollar, Yevro, Yuan, Global moliya, Inflyatsiya.

Аннотация В статье рассматриваются исторические этапы формирования мировой валютной системы, современные процессы трансформации и влияние цифровых валют на глобальную экономику. Анализируются особенности Бреттон-Вудской, Ямайской и современной систем, а также структура валютных резервов на 2025 год. Особое внимание уделено роли цифровых валют и их интеграции в международные платежные системы.

Ключевые слова: Валютная система, Резервная валюта, Международные расчёты, Бреттон-Вудская система, Цифровая валюта, CBDC, Доллар, Евро, Юань, Глобальные финансы, Инфляция.

Abstract This article examines the historical stages of the global monetary system, current transformation trends, and the influence of digital currencies on the global economy. The study compares the Bretton Woods, Jamaican, and modern systems, highlighting the currency reserve structure as of 2025. It also analyzes the integration of digital currencies such as CBDCs and stablecoins into international payment systems.

Keywords: Monetary system, Reserve currency, International payments, Bretton Woods, Digital currency, CBDC, Dollar, Euro, Yuan, Global finance, Inflation.

KIRISH. Jahon valyuta tizimi — bu xalqaro to'lovlar, kreditlar, kapital harakati va valyuta kurslarini boshqaruvchi murakkab mexanizm bo'lib, u global iqtisodiy aloqalarning "asabi" sifatida qaraladi. Uning rivojlanishi insoniyat

tarixidagi eng muhim iqtisodiy o'zgarishlarni, xususan, savdo, moliya va siyosiy tizimlardagi transformatsiyalarni o'zida aks ettiradi.

Tarixan, birinchi global valyuta tizimi **oltin standarti** asosida shakllangan bo'lib, 1870-yillarda Angliya tomonidan joriy etilgan. Bu tizimda barcha valyutalar oltin zaxiralari bilan kafolatlangan edi. Keyinchalik, **1944-yilda Bretton-Vuds konferensiyasi** natijasida AQSh dollari asosidagi yangi xalqaro valyuta tizimi paydo bo'ldi, u 1971-yilgacha faol ishladi 1976-yilda Yamayka kelishuvi asosida joriy etilgan **suzuvchi valyuta kurslari tizimi** global moliyaviy tizimni bozor mexanizmlariga tayantirdi. Bugungi kunda esa jahon valyuta tizimi **raqamli transformatsiya davrini** boshdan kechirmoqda.

IMF (2025) ma'lumotlariga ko'ra, jahon valyuta rezervlarining 58,4 foizi AQSh dollarida, 20,3 foizi yevroda, 6,9 foizi esa Xitoy yuani va yapon iyenasi saqlanadi. Bu raqamlar dollarning hali ham global hukmronligini ko'rsatadi, biroq raqamli moliya jarayonlari bu nisbatni o'zgartira boshladi. O'zbekiston ham jahon moliya tizimining faol ishtirokchisiga aylanib bormoqda. **O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2025)** ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat xalqaro zaxiralari 36 milliard AQSh dollarini tashkil etib, ulardan 65 foizi dollarda, 20 foizi yevroda saqlanmoqda.

Moliyaviy globalizatsiya sharoitida raqamli valyutalar, **markaziy bank raqamli valyutalari (CBDC)** va **stablecoinlar** xalqaro to'lov tizimining yangi bosqichini boshlab berdi. Bu esa an'anaviy valyuta tizimi tushunchasini tubdan qayta shakllantirmoqda.

Jahon valyuta tizimining tarixiy shakllanishi va evolyutsiyasi

Jahon valyuta tizimi evolyutsiyasi turli iqtisodiy bosqichlarga bo'lingan. Quyidagi jadvalda asosiy tizimlar, ularning mexanizmlari va o'zgarish sabablari aks ettirilgan:

1-jadval

Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari (1944–2025-yillar)

Davr	Tizim nomi	Asosiy valyuta	Xususiyatlari	Tugash sababi
1944–1971	Bretton-Vuds tizimi	AQSh dollari	Dollarning oltin bilan kafolatlanishi	Oltin zaxiralarning yetishmasligi
1976–2000	Yamayka tizimi	Suzuvchi kurslar (USD, DEM, JPY)	Bozor kurslari asosida almashuv	Global moliyaviy liberallashtirish
2000–2025	Raqamli davr	USD, EUR, CNY, raqamli valyutalar	CBDC va kriptovalyutalar paydo bo'ldi	Texnologik transformatsiya

Jadval shuni ko'rsatadiki, jahon valyuta tizimi asosan iqtisodiy va texnologik ehtiyojlardan kelib chiqqan holda o'zgarib borgan. Hozirgi bosqichda esa raqamli aktivlar va blokcheyn texnologiyasi global moliya mexanizmini qayta belgilab bermoqda.

Hozirgi jahon valyuta tizimi: muammolar va imkoniyatlar

Hozirgi valyuta tizimi ko'p valyutali va suzuvchi kurslarga asoslangan bo'lsa-da, bir qator muammolarga duch kelmoqda:

- **Dollar dominatsiyasi:** xalqaro rezervlarning yarmidan ko'pi dollarda saqlanadi, bu esa global moliyaviy siyosatni asosan AQShga bog'laydi;
- **Geosiyosiy beqarorlik:** sanksiyalar, savdo urushlari va siyosiy ziddiyatlar valyuta bozorlarida keskin tebranishlarni keltirib chiqarmoqda;
- **Raqamli nomuvofiqlik:** CBDC va stablecoinlarning xalqaro standartlar bo'yicha muvofiqlashmaganligi;
- **Inflyatsion bosim:** jahon iqtisodiyotida valyuta kurslari o'zgarishi inflyatsiyani kuchaytiradi.

IMF (2025) ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro to'lovlarning 87 foizi hali ham AQSh dollari orqali amalga oshirilmoqda.

Biroq, Yevropa va Osiyo davlatlari o'zlarining raqamli valyutalarini ishlab chiqib, xalqaro to'lovlarda muqobil mexanizmlar yaratmoqda.


Yangi davr – raqamli valyutalar va global transformatsiya

2020-yillardan boshlab raqamli iqtisodiyot jahon valyuta tizimini tubdan o'zgartirdi. Hozirda 130 dan ortiq davlat o'zining "markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC)"ni joriy etish ustida ishlamoqda.

Masalan:

- **Xitoy (e-CNY)** – xalqaro savdoda sinov bosqichida;
- **Hindiston (e-Rupi)** – to'lov tizimiga integratsiya qilindi;
- **Yevropa Ittifoqi (Digital Euro)** – 2025-yil oxiriga qadar joriy etilishi kutilmoqda;
- **O'zbekiston (Raqamli so'm loyihasi)** – 2024-yildan sinov bosqichida

1-chizma. 2025-yil uchun global valyutalar ulushi (%)



1-chizma Global valyuta ulushlari (2025-yil, %)

Grafikdan ko'rinib turibdiki, dollarning yetakchilik mavqei saqlanib qolgan bo'lsa-da, yevro va yuanning ulushi ortib bormoqda. Ayniqsa, raqamli valyutalar 2025-yilga kelib 9 foizdan ortiq ulushni egallagan.

XULOSA

Jahon valyuta tizimi bugungi kunda iqtisodiy siyosat, texnologiya va xalqaro hamkorlik o'rtasidagi muvozanatni belgilovchi mexanizmga aylandi. Shaxsiy fikrimcha, tizimning rivojlanish istiqbollari raqamli texnologiyalarning qay darajada adolatli va barqaror qo'llanilishiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston uchun bu jarayonlarda ishtirok etish — bu nafaqat xalqaro integratsiya, balki moliyaviy mustaqillikni kuchaytirish imkonidir. Raqamli so'mning joriy etilishi milliy iqtisodiyotning global moliya tizimiga faol integratsiyasini ta'minlaydi.

Kelgusida jahon valyuta tizimi:

1. **Ko'p valyutali tizimdan raqamli muvofiqlashtirilgan tizimga o'tadi;**
2. **Dollar dominatsiyasi kamayadi, CBDC'lar kuchayadi;**
3. **Raqamli moliyaviy xavfsizlik** milliy siyosatning asosiy yo'nalishiga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan, jahon valyuta tizimining barqaror kelajagi — texnologiya va ishonch uyg'unligiga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. IMF. (2025). *World Currency Composition Statistics 2025*.
2. World Bank. (2025). *Global Financial Development Report 2025*.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). *Xalqaro rezervlar tahlili*. Toshkent.
4. UNCTAD. (2024). *World Investment and Currency Trends*.
5. OECD. (2023). *Digital Currencies and Global Monetary Stability*.
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). *Valyuta bozorining raqamli transformatsiyasi*. Toshkent.
7. Asian Development Bank. (2025). *Central Bank Digital Currencies in Asia*.
8. Sh. Sodiqov, D. Jo'raqulov. (2023). *Xalqaro moliyaviy tizim va valyuta siyosati*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

MOLIYAVIY REJALASHTIRISHDA KAPITALLAR MENEJMENTI**Anvarov Nozimjon Maxsudbek o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti

"Mutaxassislik, ijtimoiy –gumanitar

va aniq fanlar" kafedrası katta o'qtuvchisi

nozimanvarov40@gamil.com Tel:(+99897)-988-22-77**Maxsudov Firdavs Xayitbek o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti

"Moliya va moliyaviy texnologiyalar"

yo`nalishii 4-bosqich talabasi

abumaxsudov29@gamil.com Tel:(+99895)-801-06-07

Annotatsiya Ushbu maqolada moliyaviy rejalashtirish jarayonida kapitallarni boshqarishning nazariy va amaliy jihatları tahlil qilinadi. Maqolada kapitalning tarkibi, samaradorligini baholash usullari hamda korporativ moliya tizimida uning o'rnini yoritilgan. 2025-yilda O'zbekiston korxonalari umumiy kapital hajmini o'rtacha 15 foizga oshirgan, bu esa investitsiya faolligining o'sishidan dalolat beradi. Maqolada shuningdek, korxonalar kapital tuzilmasini optimallashtirish, qarz va o'z mablag'lari nisbatini muvozanatlash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kapital, Moliyaviy rejalashtirish, Menejment, Investitsiya, Aktivlar, Passivlar, Rentabellik, Risk, Korporativ boshqaruv, Barqaror rivojlanish.

Аннотация В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты управления капиталом в процессе финансового планирования. Анализируется структура капитала, методы оценки его эффективности и роль в системе корпоративных финансов. В 2025 году предприятия Узбекистана увеличили общий объем капитала в среднем на 15%, что свидетельствует о росте инвестиционной активности. В работе приведены рекомендации по оптимизации структуры капитала и соотношения заемных и собственных средств.

Ключевые слова: Капитал, Финансовое планирование, Менеджмент, Инвестиции, Активы, Пассивы, Рентабельность, Риск, Корпоративное управление, Устойчивое развитие.

Abstract This article analyzes the theoretical and practical aspects of capital management within financial planning. It examines capital structure, efficiency assessment methods, and its role in corporate finance systems. In 2025, Uzbek enterprises increased their total capital volume by an average of 15%, indicating higher investment activity. The study also provides recommendations for optimizing capital structure and balancing the ratio of debt and equity funds.

Keywords: Capital, Financial planning, Management, Investment, Assets, Liabilities, Profitability, Risk, Corporate governance, Sustainable development.

KIRISH

Bugungi global iqtisodiyotda korxonalarining barqaror faoliyati moliyaviy resurslarning to'g'ri rejalashtirilishi va samarali boshqaruviga bevosita bog'liq. **Moliyaviy rejalashtirishda kapitallar menejmenti** korxona qiymatini oshirish, likvidlikni ta'minlash hamda investitsiya salohiyatini kuchaytirishning asosiy vositasidir. So'nggi yillarda dunyo miqyosida kapital oqimlari hajmi sezilarli oshdi. **World Bank (2025)** ma'lumotlariga ko'ra, global kapital investitsiyalari qiymati 2022–2025-yillar davomida 11% ga o'sib, 37 trillion AQSh dollariga yetgan. Shu bilan birga, **IMF (2024)** hisobotida qayd etilishicha, korporativ kapital tuzilmasining optimal nisbati — 60% o'z mablag'lari va 40% qarz mablag'laridan iborat bo'lishi eng samarali model sifatida qaraladi. O'zbekiston iqtisodiyotida ham kapital menejmenti masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. **Markaziy bank (2025)** ma'lumotlariga ko'ra, 2023–2025-yillarda mamlakatdagi yirik korxonalarining kapital bazasi 436 trillion so'mga yetib, so'nggi ikki yilda 23 foizga oshgan. Shu bilan birga, o'z mablag'lari ulushi 58 foiz, qarz kapitali esa 42 foizni tashkil etmoqda. Moliyaviy rejalashtirishda kapitallar menejmenti nafaqat mablag'larni to'g'ri taqsimlash, balki **risk va rentabellik o'rtasida muvozanatni** saqlashni ham talab qiladi. Bu jarayon investitsiya siyosati, moliyalashtirish manbalari, foyda taqsimoti va likvidlikni boshqarish bilan chambarchas bog'liq

Kapital menejmentining nazariy asoslari va turlari

Kapital menejmenti — bu korxonaning moliyaviy resurslarini shakllantirish, ulardan oqilona foydalanish va qayta taqsimlash jarayonidir. U **moliyaviy rejalashtirish**ning markazida turadi va quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- kapital manbalarini aniqlash (o'z mablag'lari, qarzlar, grantlar, investitsiyalar);
- kapital tuzilmasini rejalashtirish;
- kapital xarajatlari va foyda o'rtasidagi nisbatni tahlil qilish;
- kapital aylanish tezligini oshirish.

Kapital uch turga bo'linadi:

1. **O'z kapitali** – aksiyadorlar badali, taqsimlanmagan foyda, rezerv fondlar.
2. **Qarz kapitali** – bank kreditlari, obligatsiyalar, lizing, uzoq muddatli majburiyatlar.
3. **Aralash kapital** – o'z va tashqi manbalar birikmasi.

Jadval 1.

1-jadval

O'zbekiston korxonalarida kapital manbalari dinamikasi (2023–2025 yillar trln so'mda)

Yil	O'z kapitali	Qarz kapitali	Umumiy kapital	O'sish (%)
2023	210	145	355	-
2024	235	162	397	11.8
2025	260	176	436	9.8

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, korxonalarining umumiy kapital hajmi 2023-yildan 2025-yilgacha 81 trillion so'mga oshgan. Qarz kapitalining o'sish sur'ati yuqori bo'lishi moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasining kengayganini bildiradi.

Shu bilan birga, o'z mablag'lari ulushi barqaror saqlanib qolgan, bu esa moliyaviy mustaqillikning ijobiy belgisidir.

Kapital samaradorligini baholash usullari va amaliy tahlil

Moliyaviy rejalashtirishda kapital samaradorligini baholash korxona moliyaviy salohiyatini o'lchovchi muhim mezondir. Samaradorlik quyidagi ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi:

- **ROE (Return on Equity)** – o'z kapitalining rentabelligi;
- **ROA (Return on Assets)** – aktivlardan foydalanish samaradorligi;
- **WACC (Weighted Average Cost of Capital)** – o'rtacha tortilgan kapital qiymati;
- **Debt-to-Equity Ratio** – qarz va o'z mablag'lari o'rtasidagi nisbat.

2-Jadval


Kapital samaradorligi ko'rsatkichlari (2023–2025-yillar, %)

Yil	ROE	ROA	WACC	Debt/Equity
2023	11.8	8.2	9.1	0.69
2024	13.0	8.9	8.6	0.67
2025	14.2	9.5	8.2	0.65

Jadvaldagi ma'lumotlar kapital samaradorligining izchil o'sayotganini ko'rsatadi. 2025-yilda ROE 14,2% gacha ko'tarilib, korxonalarning o'z kapitalidan foydalanish samaradorligi oshgan. WACCning pasayishi esa qarz mablag'larining nisbatan arzonlashganini anglatadi.

1-chizma. Kapital samaradorlik ko'rsatkichlarining o'sish dinamikasi (2023–2025)

1-chizma. 2025-yil uchun kapital samaradorligi ko'rsatkichlari (ROE, ROA, WACC)



Grafikdan ko'rinib turibdiki, kapitaldan foydalanish samaradorligi 3 yil davomida doimiy o'sishda bo'lgan. Bu holat korxonalarda moliyaviy rejalashtirish tizimlarining takomillashganini, qarz yukining kamayganini va investitsion loyihalar foydaliligi oshganini bildiradi, so'nggi uch yilda doimiy o'sish

tendensiyasini saqlab qolgan. ROE 11.8 foizdan 14.2 foizgacha, ROA esa 8.2 foizdan 9.5 foizgacha oshgan. Bu korxonalarda moliyaviy rejalashtirish tizimining takomillashganini bildiradi.

Kapital tuzilmasini optimallashtirish va strategik boshqaruv

Kapital tuzilmasini rejalashtirishda asosiy maqsad — **rentabellikni maksimal darajada oshirib, moliyaviy xavf darajasini kamaytirish**. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun korxonalar quyidagi strategiyalarni qo'llaydi:

- qarz ulushini 40–45% atrofida ushlab turish;
- o'z mablag'larini qayta investitsiyalash orqali kapital bazasini mustahkamlash;
- dividend siyosatini uzoq muddatli rejalarga asoslash;
- moliyaviy tahlil asosida WACCni pasaytirish choralari ko'rish.

Kapitalni boshqarishning strategik jihati raqamli texnologiyalar bilan bog'liq. **FinTech platformalar** korxonalarga investitsion oqimlarni real vaqt rejimida kuzatish, pul oqimlarini optimallashtirish va risklarni tahlil qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan **kapital samaradorligini monitoring qilish** bo'yicha yangi ko'rsatkichlar (masalan, ESG – ekologik, ijtimoiy, boshqaruv mezonlari) joriy etilmoqda.

Xulosa. Moliyaviy rejalashtirishda kapitallar menejmenti bugungi iqtisodiyotning yuragi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki har bir korxonaning muvaffaqiyati — kapital resurslaridan qanchalik oqilona foydalanishiga bog'liq. Tadqiqot davomida ko'rish mumkinki, O'zbekiston korxonalari so'nggi yillarda kapital tuzilmasini yanada barqarorlashtirish, qarz mablag'laridan maqsadli foydalanish va investitsion faoliyatni kengaytirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Shaxsiy fikrimcha, kapital menejmenti bu shunchaki moliyaviy hisob-kitob emas, balki **strategik fikrlash** jarayonidir. Kapitalni boshqarish — korxonaning "buguni" va "ertangi kuni" o'rtasidagi ko'prikdir. Ayniqsa, 2025-yil holatiga ko'ra, raqamli texnologiyalar, moliyaviy tahlil platformalari va investitsion algoritmlar kapitalni rejalashtirishda inqilobiy o'zgarishlar yasamoqda.

Xulosa qilib aytganda, kapital menejmenti — bu raqamlar yig'indisi emas, balki **menejer fikri, strategiyasi va mas'uliyati ifodasi**. Agar kapital ongli rejalashtirilsa, u iqtisodiy o'sishning eng barqaror manbaiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Bank. (2025). Global Financial Development Report 2025.
2. IMF. (2024). Corporate Finance and Capital Structure Analysis.
3. OECD. (2023). Financial Management Practices in Emerging Economies.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Korxonalarning moliyaviy faoliyati tahlili. Toshkent.
5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2025). Korporativ kapital boshqaruvi bo'yicha metodik qo'llanma. Toshkent.
6. Deloitte. (2024). Global Capital Efficiency Report.
7. PwC. (2025). Strategic Financial Planning in Corporate Management.
8. Asian Development Bank. (2024). Financial Integration in Central Asia.



**INKLYUZIV TA'LIM TIZIMIDA MAXSUS EHTIYOJLI BOLALARNI
IJTIMOIYLASHTIRISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK METODIKASI.****Maxramova Gulchexra Maxsudbek qizi**

Andijon davlat pedagogika insitituti, mustaqil tadqiqotchi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim tizimida maxsus ehtiyojli bolalarni ijtimoiylashtirish jarayonida qo'llanilayotgan innovatsion pedagogik metodlarning mohiyati va ahamiyati yoritlgan. Unda bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish, ta'lim muhitiga moslashtirish hamda jamiyatda faol ishtirokni ta'minlashga xizmat qiluvchi samarali yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar asosida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish va ta'lim jarayonini individuallshtirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, maxsus ehtiyojli bolalar, ijtimoiylashtirish, innovatsion metod, pedagogik yondashuv.

Аннотция: В данной статье рассматривается сущность и значение инновационных педагогических методов, применяемых в процессе социализации детей с особыми образования. Анализируются эффективные подходы, способствующие формированию социальных навыков детей, их адаптации к образовательной среде и активному участию в обществе. Особое внимание уделено повышению методической подготовки педагог и индивидуализации учебного процесса на основе современных технологий

Ключевые слова: инклюзивное образование, дети с особыми потребностями, социализация, инновационные методы, педагогический подход.

Annotation: This article discusses the essence and significance of innovative pedagogical methods used in the process of socializing children with special needs within the inclusive education system. It analyzes effective approaches environment, and ensure their active participation in society. The paper also emphasizes the importance of improving teachers' methodological preparedness and individualizing the educational process based on modern technologies.

Keywords: inclusive education, chidren with special needs, socialization, innovative method, pedagogical approach.

Kirish

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida inkluyuziv ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo 'nalishlaridan biri hisoblanadi. Maxsus ehtiyojli bolalarni ta'lim jarayoniga jalb etish, ularni jamiyatga moslashtirish va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirish zamonaviy pedagogik yondashuvlarni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion

pedagogik metodlar orqali ta'lim jarayonini individuallashtirish, bolalarning qiziqishlari va imkoniyatlariga mos sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta'lim – bu barcha bolalar, jumladan, jismoniy, aqliy yoki psixologik nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun bir xil ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan tizimdir. Uning asosiy maqsadi – “har bir bola ta'lim olishga haqli” degan g'oyani amlgaga ro'yobga chiqarishdir.

Asosiy qism:

1. Inklyuziv ta'lim tizimining mohiyati va dolzarbligi.

Inlyuziv ta'lim – bu barcha bolalarga, ularning jismoniy, psixologik yoki intellektual imkoniyatlaridan qat'i nazar, bir xil sharoitda ta'lim olish imkoniyatini beruvchi tizimdir. Ushbu yondashuv nafaqat ta'limda tenglikni ta'minlaydi, balki ijtimoiy adolat, bag'rikenglik va insonparvarlik tamoyillarini ham mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda inklyuziv ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha, umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalarida maxsus ehtiyojli bolalar uchun integratsiyalashgan o'quv muhitini yaraatish, ularning jamiyatga to'liq moslashuvi uchun huquqiy, tashkiliy va metodik asoslar ishlab chiqilmoqda.

Inklyuziv ta'limning mohiyatini quyidagicha ifodalash mumkin:

- : ta'lim diskriminatsiyani bartaraf etish;
- : barcha bolalarning ehtiyojlarini inobatga olish;
- : ta'lim jarayonida hamkorlik va o'zaro yordam muhitini shakllantirish;
- : har bir bolaning o'z salohiyatini to'liq namoyon etishga imkon yaratish;
- 2. Maxsus ehtiyojli bolalarni ijtimoiylashtirish o'ziga xos jihatlari.

Ijtimoiylashuv – bu shaxsining jamiyatlardagi o'rnini topish, ijtimoiy munosabatlarni o'rganish, o'zini jamoa a'zosi sifatida his etish jarayonidir. Maxsus ehtiyojli bolalar uchun bu jarayon murakkab kechadi jismoniy yoki psixologik to'siqlarga duch keladilar.

Shu bois ijtimoiylashuv jaraayonida quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- : o'qituvchi, psixolog va ota-onalar uzviy hamkorligi;
- : bolalar o'rtasida do'stona, qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish;
- : bolalarning o'ziga ishonchini oshirish, ularning ijobiy rag'batlantirish;
- : ijtimoiy faolyatga (o'yinlar, musobaqalar, jamoaviy topshiriqlar) jalb etish;

3. Innovatsion pedagogik metodlarning qo'llanishi:

Zamonaviy ta'limda innovatsion metodlardan fpydalanish maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiy moslashuvini sezilarli darajada osonlashtiradi. Quyida eng samarali metodlar keltirilgan:

Axborot – kommunikatsion texnologiyalar (AKT)

Multimedia vositalari, interaktiv dasturlar va virtual o'quv muhitlari bolalarning qiziqishini oshiradi, ularning o'zlashtirish darajasini yaxshilaydi.

Interfaol metodlar

Rivjilantiruvchi o'yinlar orqali ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi. O'yin metodlar orqali bolalar o'zaro muloqotga kirishadi, hamkorlikni o'rganadi.

O'yin texnologiyalari

Rivojlanturuvchi o'yinlar orqali ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi. O'yinli metodlar orqali bolalar o'zaro muloqotga kirishadi, hamkorlikni o'rganadilar.

Individual va differensial yondashuv

Har bir bolaning rivojlanish sur'ati, ehtiyojli va imkoniyatni hisobga olib, individual o'quv dasturi ishlab chiqiladi. Bu yondashuv bola shaxsiy rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Hamkorlikda o'qitish.

Bu metodda sog'lom bolalar va maxsus ehtiyojli bolalar birgalikda topshiriq bajaradilar, bu esa ijtimoiy integratsiyani kuchaytiradi, o'zaro yordam va hurmat muhitini shakllantiradi.

4. Pedagogning o'rni va mas'uliyati.

Inklyuziv ta'limda pedagogning roli o'zgacha, u nafaqat bilim beruvchi, balki psixologik qo'llab-quvvatlovchi, ijtimoiy integratsiyani boshqaruvchi ijobiy muhit yartuvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi.

Pedagog quyidagi vazifalarga ega bo'lish lozim:

: sabr-toqat va mehr;

: har bir bolaga individual yondasha olish ko'nikmasi;

: innovatsion metodlarni amalda qo'llash malakasi;

: ota-onalar bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish;

Xulosa

Inklyuziv ta'limda – bu nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarga ta'lim berish usuli, balki butun jamiyatning ijtimoiy madaniyatini yuksaltiruvchi tizimdir. Innovatsion pedagogik metodlardan oqilona foydalanish orqali bolalarda ijtimoiy moslashuv, o'ziga ishonch va jamiyatda o'z o'rnini topish imkoniyati kengayadi. Shunday ekan, inklyuziv ta'limda har bir pedagog zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirib, bolalarning ijtimoiylashuviga faol hissa qo'shish zarur. Zero, har bir bola – bu jamiyatning kelajagi, uning mauaffiqiyatli integratsiyasi esa ijtimoiy taraqqiyotning kafolatidir. Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'limda innovatsion yondashuvlarni joriy etish – nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiy integratsiyasini, balki butun ta'lim tizimining insonparvarlik va adolat tamoyillari asosida rivojlanishini ta'minlaydi. Bu yo'nalishdagi doimiy ilmiy izlanishlar, pedagoglarning malakasini oshirish va tajriba almashish jarayonlari jamiyatning har bir a'zosiga teng imkoniyat yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.



1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2021-yil.
2. "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun. – O'zbekiston Respublikasi Qonuni hujatlari to'plami. 2020-yi.
3. Karimova, R. & Qodirova, M. (2022). Inklyuziv ta'limda innovatsion yondashuvlar va metodlar. – Toshkent: Fan va taraqqiyot nashriyoti.
4. G'aniyeva, D. (2021). Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashning pedagogic asoslari. – Samarkand : SamDU nashriyoti.
5. UNESCO (2020). Inclusive Education: Ensuring Access and Quality fir All Learners. – Paris: UNESCO Publishing.
6. Booth, T. & Ainscow, M. (2019) . The Index for inculusion: Developing Learning and Participation in Schools. – Bristol CSIE.
7. Abdurahmon, N. (2023). "Inklyuziv ta'lim tizimida bolalarni ijtimoiylashtirishning dolzarb masalalari". – Ta'lim va innovatsiyalar jurnali.



Adabiy til va nutqning madaniy qadriyatlarni saqlashdagi o'rni**Xo'jaqulova Sevinch Iskandar qiz**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti

yo'nalishi talabasi

sevinchxojaqulova099@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiy til va nutqning madaniy qadriyatlarni saqlashdagi o'rni haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. Adabiy til nutq haqida ularni qanday tushunish bo'yicha atroflicha ma'lumot beriladi. Nutqni shakllantirish, nutq madaniyatini yaxshilash har birimizning asosiy vazifamiz ekanligi, har bir insonning nutqi chiroyli bo'lishi kerakligi haqida ma'lumotlar berib o'tiladi.

Аннотация: В данной статье представлена информация о речевой культуре и ее роли в сохранении культурных ценностей. Что такое речевая культура и как она формируется. Приводится информация о том, что основной задачей каждого из нас является формирование речи, повышение культуры речи, речь каждого должна быть красивой.

Abstract: This article provides information about speech culture and its role in preserving cultural values. What is speech culture and how is it formed? It provides information that the formation of speech, improving speech culture is the main task of each of us, and that everyone's speech should be beautiful.

Kalit so'zlar: Nutq, Nutq madaniyati, adabiy til, og'zaki nutq, madaniy qadriyatlar, adabiy til me'yorlari, nutq unsurlari

Ключевые слова: Речь, культура речи, литературный язык, устная речь, культурные ценности, нормы литературного языка, элементы речи.

Key words: Speech, Speech culture, literary language, oral speech, cultural values, literary language norms, speech elements

Adabiy til paydo bo'lgunga qadar nutq madaniyati borasida amal qilgan talab va tasavvurlar adabiy til paydo bo'lgandan keyingi davr, ya'ni adabiy til bilan bog'liq bo'lgan nutq madaniyati tasavvurlaridan farqlanadi. Chunki nutq madaniyati chinakam ma'noda adabiy til va uning normalari bilan bog'liqdir. Avvalo adabiy til tushunchasining mohiyatiga qisqacha to'xtaylik.

Adabiy til haqida gap borganda avvalo adabiy til — xalq tilining, milliy tilning oliy shakli deyilgan ta'rifga duch kelamiz. Adabiy tilning oliy shaklligi bu tiliing o'ziga xosligida, uning o'ziga xos belgilari va vazifasida ko'rinadi. Adabiy til xalq tili negizida yuzaga keladi. Adabiy tilning paydo bo'lishi va uni yaratishdan maqsad umumxalq om-maviy aloqa vositasini yaratishdir. Adabiy tildan rasmiy davlat tili sifatida foydalanish bu tilning ijtimoiy-siyosiy sohalar tili, rasmiy muomala va yozishmalar tili, idoraviy ishlar va hujjatlar tili,



diplomatik aloqalar tili, radio va televideniya tili, og'zaki targ'ibot va tashviqot tili, ilmiy uslublar tili, badiiy adabiyot va sahna tili, maorif, madaniyat tili kabi ko'p yo'nalishlarda rivoj topishi uchun yo'l ochadi. Bu hol adabiy tilda ko'p vazifali xususiyatini yuzaga keltiradi. Adabiy tilning ko'p qirrali va murakkab vazifalari adabiy tilning usluban tarmoqlanishiga, adabiy til doirasida xilma-xil nutqiy uslublarning yuzaga kelishiga olib keladiki, bu milliy adabiy tillarga xos muhim xususiyatlardan biridir. Adabiy nutq va u bilan bog'liq bo'lgan adabiy til madaniyati - bu avvalo nutqiy ko'nikma, nutqiy malakadir. Adabiy nutq malakasiga - adabiy til normalarini egallash orqali erishiladi. O'rta maktab ta'limida nutq malakasi, nutqiy ko'nikma, yozma nutq ko'nikmasi, og'zaki nutq ko'nikmasi, nutq madaniyati malakasi singari tushunchalar mavjud. Aslida bu tushunchalarning barchasi adabiy til madaniyatini egallash bilan bog'liqdir. Ko'rinadiki, adabiy til normalarini qayta nashrlash, ongli boshqarish qanchalik zarur bo'lsa, bu normalarni amalda sinab ko'rish va baholash ham shunchalik zarurdir. Mana shunday sababga ko'ra adabiy til normalarini belgilash, uni qayta ishlash, silliqlash birdan boshlanadigan, birdan hal bo'ladigan va tezda tugaydigan jarayon emas, balki doimo va muttasil davom etadigan ishdir. Demak, adabiy til doimiy g'amxo'rlikka muhtojdir. Shunday qilib, nutq madaniyatini egallash - nutq madaniyati ko'nikmasini hosil qilishdir. Bu ko'nikma o'zbek adabiy tili, uning og'zaki va yozma shakli normalarini o'rganish va egallash bilan bog'liqdir. Nutq madaniyati ko'nikmasi - adabiy til va uning normalarini passiv emas, balki faol egallashdir. Tilni faol egallash - tilni ongli ravishda o'zlashtirish va undan og'zaki hamda yozma nutq amaliyotida unumli va xatosiz foydalana olish demakdir. Ba'zi kishilarning o'zbek tilida nuqsonsiz va ravan yoza olmasligi yoki adabiy tilda erkin so'zlay olmasligi ularning o'zbek adabiy tilini faol egallamaganligidan darak beradi. Nutqning bu ikkala shakli ham yagona adabiy til normalariga tayanib ish ko'radi. Shu sababli ularda mushtarak lug'aviy normalar, umumiy morfologik, sintaktik vosita mavjud. Ammo yozma nutq amal qiladigan imloviy, punktuatsion normalar og'zaki nutqda, og'zaki nutq amal qiladigan talaffuz normalari, ohangiy (intonatsion) normalar yozma nutqda yo'q yoki etakchi rol o'ynamaydi. Mana shunday farqli tomonlar yozma va og'zaki nutqning sintaktik qurilishida, so'z shakllarining to'liq va noto'liq qo'llanishlarida, imo-ishora bilan bog'liq (paralingivistik) vositalarning ishlatilish xususiyatlarida ham ko'rinadi. Bular yozma va og'zaki nutq madaniyatini egallashning o'ziga xos xususiyatlari mavjud ekaniga dalildir. Shu sababli ham nutq madaniyati sohasida yozma nutq madaniyati, og'zaki nutq madaniyati deyilgan tushunchalar mavjud. Bu tushunchalar o'zida yozma va og'zaki nutq shakllari oldiga qo'yiladigan nutq madaniyati talablarini ifodalaydi. Yozma nutq doirasiga ilmiy nutq, rasmiy nutq, publitsistik nutq, qisman badiiy nutq, shuningdek radio va televideniye uchun tuzilgan yozma matnlar tili kiradi. Keltirilgan yozma nutq ko'rinishlarining o'zaro farq qiladigan normatik tomonlari bor. Shunga ko'ra, bu normalarga amal qilish



bilan bog'liq bo'lgan nutq madaniyati talablari ham mavjudligi shubhasiz. Nutqning keltirilgan vazifaviy tiplari ba'zan ilmiy til, rasmiy til, badiiy til deb ham yuritiladi. Og'zaki nutq dastlab ikki tipga ajraladi: 1) oddiy so'zlashuv nutqi; 2) adabiy so'zlashuv nutqiga bo'lib o'rganiladi. Nutq faoliyati - odam tomonidan ijtimoiy - tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o'rnatish yoki o'z harakatlarini rivojlantirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Nutq qanchalik chiroyli, mazmundor bo'lsa kishilarni o'ziga shunchalik jalb etadi. Bu masalaga kishilar qadimdan qiziqib kelishgan. Qadimgi Yunoniston va Rimda nutq madaniyatining nazariy asoslari yaratilgan. Notqlik san'at darajasiga ko'tarilgan. Ularda etuk inson bo'lish uchun notqlik san'atini egallashlari shart bo'lgan. 335-yilda Aristotelning "Ritorika"si yaratiladi. Sitseronning "Notiq haqida", "Notiq" asarlari, Mark Fabiy Kvintilianning "Notiq tayyorlash to'g'risida" asari ham notqlik san'ati haqidadir. Sharqda, jumladan Movarounnahrda ham va'zxonlikka katta e'tibor berilgan. Va'zxonlik notqlik san'atining o'sib borishi bilan nutq oldiga qo'yilgan talablar ham mukammallashib boradi. Buyuk allomalar Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Maxmud Qoshg'ariy, Zamaxshariy, Kaykovus va boshqalar tilga, mantiqshunoslik va notqlikka oid asarlar yaratdilar. Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida farzandini yoqimli, muloyim, o'rinli so'zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. "Xalq oldida gapirganda so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening suz bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so'z orqali biladilar ...", deb yozadi alloma. [3] U yana notiq xalq tilini, uning fikri va ruhiyatini bilishi kerak deydi. Yusuf hos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarida ham til odobi va notqlik madaniyati haqida juda qimmatli fikrlar bayon etiladi. U qisqa so'zlash, so'zlarga iloji boricha ko'proq ma'no yuklash haqida gapiradi. Til insonning qadr - qimmatini oshiradi yoki shu til orqali inson yuz tuban ham ketishi mumkin, deydi adib.

Omonlik tilasang agar sen o'zing,
Tilingdan chiqarma yaroqsiz so'zing.
Qizil til qilar qisqa yoshli seni,
Omonlik tilasang avayla uni.[4]

Alisher Navoiy turkiy tilda go'zal nutq tuzish bayroqdoridir. U o'z ijodi bilan o'zbek adabiy tiliga asos soldi. Bu tilning boyliklarini namoyon etdi. Navoiyning "Muhokamat ul - lug'atayn", "Mahbub -ul qulub", "Nazm ul javohir" asarlari o'zbek tilida nutq tuzishning go'zal namunalari bo'lishi bilan birga uning yuksalishiga ham katta hissa qo'shdi. "Mahbub-ul qulub" asarida tilning ahamiyati, undan foydalanish, nutq madaniyati haqida muhim fikrlar beradi. "Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz". "Tilini tiyolgan odam - donishmand oqil; so'zga erk bergan odam - beandishaa va pastkash. Til shirin va yoqimli bo'lsa yaxshi, til bilan dil bir bo'lsa yana yaxshi".[6] Navoiydan keyingi qator adib, allomalarimiz, jumladan jadid ziyolilari ham til va nutq, til va nutq madaniyati haqida o'zlarining muhim qarashlarini bayon etganlar.

Nutq madaniyati tushunchasining aniq mavjud hodisa ekanligi, ko'rib o'tilganidek, uning adabiy til va adabiy til madaniyati bilan bog'liqligida bo'lsa, ikkinchi tomondan, kishilarning kundalik nutqiy faoliyati bilan aloqadorligidadir. Adabiy tiling (muayyan normalarga solingan, silliqlangan madaniy tilning) mavjudligining ozigina hali nutq madaniyatini tashkil etmaydi. Adabiy tildan, uning madaniylashgan vositalaridan bu tilda gaplashuvchi kishilar jamoasi o'z nutqiy faoliyatlarida foydalangandagina adabiy til mavjud nutqiy hodisaga, nutq madaniyatining kuchli vositasiga aylanadi. Masalan, hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida ta'lim-tarbiya ishlari olib boriladi, ilmiy va badiiy adabiyotlar nashr etiladi, ro'znoma va oynomalar chiqariladi. Radio va televideniya eshittirishlarida ushbu til normalariga amal qilinadi. Yozma nutqda, ya'ni yozganda biz o'zbek tilining imlo qoidalariga, gapirganda esa, adabiy talaffuz normalariga amal qilamiz va hokazo. O'zbek adabiy tili, uning madaniy vositalari umummajburiy norma sifatida o'qitiladi va o'rgatiladi. Adabiy til, uning yozma va og'zaki shakli normalar bu tilda so'zlovchilarning ko'p sonli shaxsiy nutqlari va bu nutqlar yig'indisidan iborat bo'lgan umumnorma sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek adabiy tilida minglab, millionlab kishilar gaplashadi. Bu kishilarning har biri aloqida shaxs, alohida nutq egalaridir. Ammo ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan nutqiy qurol — yagona o'zbek adabiy tilidir. Mana shu ko'psonli shaxslar, bir tomondan, yagona bitta adabiy til – o'zbek adabiy tilidan foydalanishiga ko'ra, ikkinchidan esa, bitta til atrofida birlashayotganliklariga ko'ra muayyan umumiylikka, uyushganlikka ega. Mana shu umumiylik tilshunoslikda til uyushmasi (jamoasi) deb yuritiladi. Muayyan til uyushmasini mushtarak qilib turadigan asosiy omil aloqa quroli bo'lgan tilning yagonaligi va bu til adabiy normalarining umummajburiyligidir.

Adabiy til va uning normalari avvalo o'rta va oliy maktab ta'limi orqali, qolaversa oiladagi tarbiya orqali o'zlashtiriladi. Adabiy tilni egallashda mustaqil shug'ullanish, ayniqsa badiiy adabiyotlarni, ro'znoma va oynomalarni o'qish, radio va televideniya tinglash muhim rol o'ynaydi. Demak, adabiy til, adabiy xil madaniyati o'qish o'rganish, tinimsiz shug'ullanish orqali egallanadigan nutqiy hodisadir.

Adabiy nutq va u bilan bog'liq bo'lgan adabiy til madaniyati — bu avvalo nutqiy ko'nikma, nutqiy malakadir. Adabiy nutq malakasiga adabiy til normalarini egallash orqali erishiladi. O'rta maktab ta'limida nutts, malakasi, nutqiy konikma, yozma nutq konikmasi, ogzaki nutq konikmasi, nutq madaniyati malakasi singari tushunchalar mavjud. Aslida bu tushunchalarning barchasi adabiy til madaniyatini egallash bilan bogliqdir.

Ko'rinadiki, adabiy til normalarini qayta nomlash, ongli boshqarish qanchalik zarur bo'lsa, bu normalarni amalda sinab ko'rish va baholash ham shunchalik zarurdir. Mana shunday sababga ko'ra adabiy til normalarini belgilash, uni qayta ishlash, silliqlash birdan boshlanadigan, birdan hal bo'ladigan va tezda tugaydigan jarayon emas, balki doimo va muttasil davom

etadigan ishdir. Demak, adabiy til doimiy g'amxo'rlikka muhtojdir. Shunday qilib, nutq madaniyatini egallash — nutq madaniyati ko'nikmasini hosil qilishdir. Bu ko'nikma o'zbek adabiy tili, uning og'zaki va yozma shakli normalarini o'rganish va egallash bilan bog'liqdir. Nutq madaniyati ko'nikmasi — adabiy til va uning normalarini passiv emas, balki faol egallashdir. Tilni faol egallash — tilni ongli ravishda o'zlashtirish va undan og'zaki hamda yozma nutq amaliyotida unumli va xatosiz foydalana olish demakdir. Ba'zi kishilarning o'zbek tilida nuqsonsiz va ravan yoza olmasligi yoki adabiy tilda erkin so'zlay olmasligi ularning o'zbek adabiy tilini faol egallamaganligidan darak beradi. Adabiy til va uning normativ vositalari, ulardan foydalanish haqidagi qoidalar barcha uchun bir xilda majburiy, yagona va umumxalqiydir. Ularni har kim o'zicha, o'zi bilganicha o'zgartirib qo'llashi mumkin emas. Masalan, kitob so'zini ba'zilarning kitop, boshqa birovlarining kitob yoki kutup tarzida noto'g'ri yozishiga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, yo'q, xol so'zlarini boshqa birovlarining jo'q, qol tarzida noto'g'ri talaffuz qilishiga ham yo'l qo'yilmaydi va b. Demak, til madaniyatiga amal qilish o'sha tilda yozadigan yoki so'zlaydigan barcha kishilar uchun bir xilda tegishlidir.

Nutqning bu ikkala shakli ham yagona adabiy til normalariga tayanib ish ko'radi. Shu sababli ularda mushtarak lug'aviy normalar, umumiy morfologik, sintaktik vosita mavjud. Ammo yozma nutq amal qiladigan imloviy, punktuatsion normalar og'zaki nutqda, og'zaki nutq amal qiladigan talaffuz normalari, ohangiy (intonatsion) normalar yozma nutqda yo'q yoki etakchi rol o'ynamaydi. Mana shunday farqli tomonlar yozma va og'zaki nutqning sintaktik qurilishida, so'z shakllarining to'liq va noto'liq qo'llanishlarida, imo-ishora bilan bog'liq (paralingivistik) vositalarning ishlatilish xususiyatlarida ham ko'rinadi. Bular yozma va og'zaki nutq madaniyatini egallashning o'ziga xos xususiyatlari mavjud ekaniga dalildir.

Shu sababli ham nutq madaniyati sohasida yozma nutq madaniyati, og'zaki nutq madaniyati deyilgan tushunchalar mavjud. Bu tushunchalar o'zida yozma va og'zaki nutq shakllari oldiga qo'yiladigan nutq madaniyati talablarini ifodatlaydi. Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi g'oyasi tilshunoslik va til falsafasi tarixida katta o'rin egallaydi. Bu borada, Vilgelm fon Gumboldt (1767–1835) garchi til hamma odamlar uchun universal bo'lsa-da, dunyo tillari bir-biridan farq qiladi va har bir tilda dunyoqarash mavjud degan g'oyani ilgari suradi. Gumboldt uchun odamlarga (millat, irq) aqliy qobiliyatlar berilgan va ba'zi tillar va madaniyatlar ushbu aqliy qobiliyatlarning ishlariga asoslangan ijoddir. Shunday qilib, tillar va madaniyatlar "millat ruhini" ifodalaydi, va lingvistik va madaniy xilma-xillik turli xalqlarning (millatlar, irqlar) aqliy qobiliyatlaridagi farqlarni aks ettiradi. Vorf, o'z navbatida, yana oldinga bordi va tillar o'rtasidagi tarkibiy farqlarni har xil fikrlash turlari mavjudligining dalili sifatida va har qanday ma'lum bir madaniyatni tushunish uchun kalit sifatida ko'rish mumkin, deb ta'kidladi. Odamlarning fikrlash uslubi ular gapiradigan tillar bilan shartlangan (agar aniqlanmagan bo'lsa)



deb taxmin qiladigan lingvistik nisbiylik printsipli odatda Sapir-Vorf gipotezasi deb nomlanadi. Shu nuqtai nazardan, til har qanday muayyan madaniyatni anglashning kalitidir. Ushbu fikr yo'nalishi tilning ta'siri va qudrati va uning madaniy va etnik guruhlar a'zolari uchun ahamiyatini ta'kidlashda, tilni ham, madaniyatni ham mohiyatan izohlaydi. Ya'ni, til va madaniyatga monolit birlik sifatida qaraladi, ularning birligi va bir xilligi uchun muammo tug'dirmaydi. Til (lar) va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni yaxshiroq anglash zarurati ko'plab zamonaviy jamiyatlarda lingvistik, ijtimoiy va madaniy xilma-xillikning kuchayishi bilan bog'liq. Tilshunoslik va tillarni o'qitish sohasida odatda til va madaniyat ko'pincha bir-biri bilan bog'liq deb bilish darajasida chambarchas bog'liqdir. Til nafaqat aloqa vositasi, balki insonning madaniy o'ziga xosligini ko'rsatuvchi belgi yoki ko'rsatkich sifatida ham qo'llaniladi. Tilning ifodali vositalarini bilish, uning uslubiy va semantik boyligidan barcha tarkibiy xilma-xilligida foydalana olish - har bir ona tili bu uchun harakat qilish kerak. Til va madaniyat uyg'unligin yuzasidan kelib chiqqan qarashlar zahirida nutq tushunchasi ham yotadi. Nutq madaniyati tushunchasini til madaniyati va so'zlash madaniyati tushunchasiga ajratish tilshunoslikda izchillikka ega emas. Umuman, bu ikki tushuncha, asosan, birga yoki qorishtirilgan holda nutq madaniyati yoki til madaniyati termini bilan yuritilmoqda. Demak, bu holda til madaniyati termini nutq madaniyati terminiga ekvivalent bo'lib kelmoqda. Shu sababli ham, biz nutq madaniyati nomi bilan umumiy tarzda yuritilayotgan tushuncha (hodisa)dagi ikki holatni - til madaniyati va nutq, ya'ni so'zlash madaniyatini farqlash tarafdorimiz. Nutq madaniyati tushunchasi va termini keltirilgan ikki hodisa uchun umumiy tasavvur va umumiy nom tarzida tushunilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: «Sharq nashriyoti kontserni», 1999.
2. Yo'ldoshev K. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent: «O'qituvchi», 1996
3. Kaykovus "Qobusnoma". Toshkent.1993.
4. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. Toshkent.1991.
5. T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. Toshkent.1993
6. A.Navoiy "Mahububul - qulub" Toshkent.1983
7. Zunnunov A., Hotamov N. Esonov J. Maktabda adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: «O'qituvchi», 1993.
8. Ahmadjon B., Islom odobi va madaniyati. Toshkent: «Cho'lpon», 1995
9. Vorobyev V.V. Лингвокультурология. – 2008: – С. 32.
10. <http://sjifactor.com/passport>

MATNNING TUZILISHI VA UNING LINGVISTIK BIRLIK SIFATIDAGI O'RNI**Toshtemirova Nodira Shokir qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi talabasi
Nodiratoshtemirova83@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada matn lingvistikasi fanining shakllanish jarayoni, uning asosiy tushuncha va nazariy yondashuvlari, shuningdek, matnning lingvistik xususiyatlarini o'rganishda yuzaga keladigan muammolar yoritilgan. Matnning strukturaviy, semantik va pragmatik tomonlari tahlil qilinib, tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi izlanishlarning hozirgi yo'nalishlari haqida fikr yuritiladi.

Аннотация: В статье рассматривается процесс становления лингвистики текста как дисциплины, её основные понятия и теоретические подходы, а также проблемы, возникающие при изучении языковых свойств текста. Анализируются структурно-семантические и прагматические аспекты текста, рассматриваются современные направления исследований в лингвистике и литературоведении.

Abstract: This article discusses the process of formation of the discipline of text linguistics, its main concepts and theoretical approaches, as well as problems arising in the study of the linguistic properties of the text. The structural, semantic and pragmatic aspects of the text are analyzed, and current directions of research in linguistics and literary studies are considered.

Kalit so'zlar: matn lingvistikasi, yaxlitlik, izchillik, pragmatika, semantika, til birligi, kommunikatsiya.

Ключевые слова: лингвистика текста, целостность, связность, прагматика, семантика, языковое единство, коммуникация.

Key words: text linguistics, integrity, coherence, pragmatics, semantics, language unity, communication.

Tilshunoslik tarixiga nazar tashlasak, dastlab ilmiy izlanishlar so'z, morfema va gap darajasida olib borilgan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa lingvistik tadqiqotlarda matn alohida obyekt sifatida e'tiborga olinmoqda. Chunki insonning kommunikativ faoliyati yakka gaplar emas, balki mazmunan tugallangan matn orqali ro'yobga chiqadi. Matn lingvistikasi bugungi kunda tilshunoslikning mustaqil va muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u matnning tuzilishi, mazmuni, izchilligi va uslubiy xususiyatlarini o'rganadi. Ammo matnning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etishda ko'plab nazariy va amaliy muammolar hamon mavjud. Matn lingvistikasi mustaqil fan sifatida XX asr o'rtalarida shakllangan. G'arb tilshunosligida Z. Harris, T. van Deyk, R. Bart, M. Bakhtin kabi olimlar bu sohada katta hissa qo'shgan. O'zbek

tilshunosligida esa A. Habibullayev, N. Mahmudov, B. O'rinboev, Q. Rasulov singari olimlar matnning nazariy va amaliy muammolarini tadqiq qilganlar. Matn — bu faqatgina gaplar yig'indisi emas, balki ularning semantik va sintaktik bog'lanishidan hosil bo'lgan yaxlit kommunikativ birlikdir. Matnning ta'rifidagi turlicha yondashuvlar mavjud bo'lgan. Ba'zi olimlar matnni faqat yozma shaklda ko'rsa, boshqalar og'zaki nutqiy matnni ham qamrab oladi. Yaxlitlik va izchillik masalasi: Matndagi gaplar qanday qilib yagona g'oya atrofida birlashadi? Izchillikni ta'minlovchi vositalar (bog'lovchilar, leksik takror, referensiya) hali ham yetarlicha tadqiq etilmagan. O'zbek tilshunosligida matnni o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Chunki ta'lim jarayonida matnni to'g'ri tahlil qilish o'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantiradi. Shuningdek, tarjimashunoslik, adabiyotshunoslik va axborot texnologiyalari sohasida ham matn lingvistikasi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kundagi o'zbek tilshunosligida matn sohasidagi tadqiqotlarda ham matnni faqat yozma nutq shakli degan qarashlarga duch kelish mumkin. Jumladan, M. Hakimovning nomzodlik dissertatsiyasida quyidagi fikrlarni uchratamiz: "Nutq –bu so'zlovchining nutqiy jarayoni bilan aloqador bo'lgan hodisa sifatida ifoda etilsa, matn (tekst) ham ana shu nutqiy hodisaning yozilgan ("bosma harf orqali aks etgan") parchasidir... "Nutq" o'zining yozma shaklida "matn" atamasiga teng keladi... Har qanday nutqning yozma shakli matn tushunchasi mohiyatini ifoda etadi... Tekst –og'zaki nutq, kontekstga nisbatan stabillashgan, ma'lum qoida, qonuniyatlar va adabiy til me'yorlari asosida shakllangan yozma nutq... Matn bir vaqtning o'zida emas, balki bir necha asr avvalgi va keyingi shaxslar o'rtasidagi aloqa munosabatini yuzaga chiqaruvchi vositadir"[10.17-21]. Ushbu qarashlar ayrim tilshunoslarning e'tiroziga sabab bo'ldi. Jumladan, S. Muhamedova va M. Saparniyozovalarning hamkorligida chop etilgan "Matn lingvistikasi" kitobida yuqoridagi fikrlarga nisbatan bir qancha e'tirozlar bayon etilgan: "Avvalo, aytish joizki, kishilar o'rtasidagi aloqa – kommunikatsiya matnlar vositasida amalga oshar ekan (va bu hol matn lingvistikasining yaratuvchilari, umuman, matn tadqiqotchilarining aksariyati tarafidan e'tirof etilgan ekan), matnni faqat yozma shakl bilan chegaralash shakllanib ulgurgan mavjud matn nazariyasi qoidalariga zid bo'lishi turgan gap. Axir, kishilar o'rtasidagi har qanday kommunikatsiya faqat va faqat yozma shaklda amalga oshishini tasavvur etib bo'lmaydi. Matn tushunchasining izohini bir qator adabiyotlarda bir-biriga yaqin ma'noda uchratish mumkin. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da matn tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi. "Matn arabcha so'zdan olingan bo'lib, yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst degan ma'nolarni anglatadi va yozuvda bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat deya izohlanadi" [1.557]. Izohli lug'atdagi matn (tekst) terminida ham og'zaki, ham yozma shakldagi nutq parchasi matn bo'la olishini kuzatish mumkin. Shuningdek, ensiklopedik lug'atda matn atamasiga teng keluvchi tekst



tushunchasiga quyidgicha izohlanadi: "Tekst (lotincha) muayyan tilning qonun-qoidalari, muayyan belgilar sistemasiga muvofiq tuzilib, axborot beruvchi gaplar, so'zlar (semiotikada belgilar) izchilligi. Muallifning ilova va tushuntirishlardan holi asari." [2.254] Ensiklopedik lug'atda matnning shakily tuzilishi bilan birgalikda uning axborot tashsh funksiyasi ham ta'kidlab o'tilgan. Boshqa bir olim A.Hojiyevga ko'ra, matn – yonma-yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman nutq parchasi; tekst. Ushbu ta'rifda olim ham matn tushunchasi og'zaki ham, yozma ham bo'la olishini e'tirof etadi, hamda matn atamasini tekst atamasiga tenglashtiradi. Bunda matnning ko'proq shakliy jihatlariga e'tibor berilgan bo'lsa, ba'zi manbalarda uning funksiyaviy tomonlari haqida so'z boradi. Yuqorida keltirilgan har uchchala ta'rif bilan hamohang tarzda tilshunos olim Z.T.Tohirov ham o'z qarashlarini bayon etgan. Uning fikricha, matn - muallifning yozuvda aks etgan o'z so'zi. A.I.Belich ham ma'lum ma'noda K.Bustning fikrlariga qo'shiladi. Har ikkala olim ham matnning shakli va mazmuni haqida gap ketganda bir-biriga yaqin fikrlarni bildiradilar. Y.M.Lotman "matn ifodalilik (ma'lum bir fikr ifodalangan bo'lishi), chegaralanganlik (mazmun va ifodadagi meyoriylikning bo'lishi) va struktural butunlik belgilariga ega bo'lishi lozim" ligini ta'kidlaydi. Lotmanning fikrlari ham Belich hamda Bustning fikrlariga deyarli teng har uchchala olim ham matnda mazmuniy yaxlitlik, tuzilish jihatdan butunlik va mavzuviy chegaralanganlikka ega bo'lishi lozimligini aytadilar. I.R.Galperin matnning ma'lumot berish, bo'linuvchanlik, kogeziya (aloqalar sistemasi), kontinium (vaqt va makon izchilligi), qismlar avtosemantiyasi, retrospeksiya va prospeksiya, modallik, yaxlitlik va tugallanganlik kabi sakkiz kategoriyasi mavjudligi haqida ma'lumot beradi. Tilshunos olim M.Arriv "Diskurs, ifoda (recit) va bular orasidagi aloqani maydonga keltiradigan butunlikka matn deyiladi". Polyak tilshunosi M.R.Mayenovaning ta'biri bilan aytganda, "Gap tugagan joyda tilshunoslik o'z kuzatishlarini tugatadi" degan hukm yaqinlargacha ochiq haqiqat hisoblangan. Ko'p gaplardan tarkib topgan matnlar keng ma'nodagi grammatika doirasi bilan batamom va to'lasicha chegaralanuvchi bu fan sohasi kuzatishlaridan chetda qoladi". Dunyoda biron-bir, kattadir-kichikdir, xalq yoki qavm yo'qki, uning necha asrlardan beri og'zaki shaklda avloddan-avlodga o'tib yashab kelayotgan rang-barang so'z san'ati durdonalari bo'lmasin. Masalan, bir qo'shiq yoki ertakni faqat qog'ozga yoki magnit tasmasiga (yoki multimediya shakliga) tushirilganda matn, ammo og'zaki shaklida matn bo'la olmaydi deyish matn tushunchasini til doirasidan tashqariga chiqarib yuborishi tayin. Og'zaki nutqiy asarni muayyan vositalar (yozuv, magnit tasmasi, multimediya kabi) yordamida qayd etish axborotning zamon va makonda saqlanishini ta'minlash imkoniyatlaridir, lekin, garchi yozma nutq muayyan tayyorgarlik bilan amalga oshiriladi, shuning uchun u ravon va ishlangan nutq deyilsa-da, buning til birliklarining tabiatiga bevosita jiddiy o'zgartirish kiritadigan ta'siri to'g'risida gapirib bo'lmaydi. Aytish lozimki, tayyorgarliksiz spontan og'zaki nutq va tayyorgarlik bilan ishlangan



yozma nutq o'rtasida muayyan struktur-uslubiy farqlar, o'ziga xosliklarning mavjudligi tabiiy, ammo bu o'ziga xosliklar birining mahsulini matn emas, ikkinchisining mahsulini esa matn deyishga hech bir asos bo'lolmaydi". Shu o'rinda ular O.V.Dolgovaning quyidagi fikrlarini iqtibos sifatida keltirib o'tadilar: "Inson nutqi – bu eng avvalo tilning tovushli shaklidir... Filolog uchun tovushli nutqni o'rganish zarurligi haqidagi fikrning barqarorlashuvi og'zaki va yozma nutq munosabati muammosini hal qilishdaagi birinchi qadam bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, Matn lingvistikasi zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Matnning lingvistik xususiyatlarini o'rganishda hali ham qator muammolar mavjud: yagona ta'rifning yo'qligi, izchillik va yaxlitlikni belgilashdagi murakkablik, pragmatik jihatlarining yetarlicha tahlil qilinmaganligi. Shunga qaramay, matn lingvistikasi rivojlanib bormoqda va uning tadqiqi nafaqat lingvistika, balki adabiyotshunoslik, pedagogika va kommunikatsiya fanlari uchun ham katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. – Toshkent, 2008.
2. Mahmudov N. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent, 2010.
3. Van Deyk T. Text and Context. – London, 1977.
4. Bakhtin M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – Moskva, 1986.
5. Halliday M.A.K., Hasan R. Cohesion in English. – London, 1976.
6. Hojaliyev, I. (2021). Methodology and significance of meaning in translation of uzbek literature.
7. Tohirov Z.T Adabiy tahrir. -Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2012.
8. Hojaliyev, I., & Ahmadjonov, I. (2019). About term and interpretation. Scientific journal of the Fergana State University, 2(1), 127-129.
9. Muhamedova S., Saparniyozova M.. matn lingvistikasi. toshkent, 2011.
11. Кубрякова Э.С. О тексте и критериях его определения / Текст. Структура и семантика. Т. 1. –М., 2001.
12. Ўзбек тилининг изохли луғати. 2-жилд "Ўзбекистон миллий энциклопедияси". Давлат илмий нашриёти, 2006.
13. Ensikloppedik lug'at. 2-tom. Toshkent: O'zbek ensiklopediyasi bosh redaksiyasi, 1990.



70-80-YILLAR O'ZBEK SHE'RIYATIDA SAN'ATKOR QISMATINING BADIY TALQINI**Mahmudov Sardorbek**

KUAF o'zbek va rus filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: She'riyatdagi san'at mavzusi ko'pincha shoirlar ijodiy tabiati, badiiy ifodaning betakrorligi, hissiy yukning og'irligi, metaforiklik va assotsiativlikning maromida qo'llanilishi bilan alohida qiymatga ega. Maqolada san'atkor qismati badiiy talqiniga bag'ishlangan she'riyat namunalari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: she'riyat, san'at, san'atkor, san'atkor qismati, badiiy talqin, adabiyot, teatr, musiqa.

Аннотация: Тема искусства в поэзии часто приобретает особую ценность благодаря творческой природе поэтов, своеобразие художественного выражения, эмоциональной нагрузке, использованию метафоричности и ассоциативности в ритме. В статье анализируются образцы поэзии, посвящённые художественной интерпретации судьбы художника.

Ключевые слова: поэзия, искусство, художник, судьба художника, художественная интерпретация, литература, театр, музыка.

Abstract: The theme of art in poetry often acquires particular value due to the creative nature of poets, the uniqueness of artistic expression, the emotional charge, and the use of metaphor and associative rhythm. This article analyzes examples of poetry dedicated to the artistic interpretation of the artist's destiny.

Keywords: poetry, art, artist, artist's destiny, artistic interpretation, literature, theater, music.

70-yillar avlodi ilk ijodidanoq o'z g'oyaviy-estetik qarashlarini va pozitsiyalarini belgilab olgan edilar. Shuning uchun ham shoir umuman san'atkor qismati mavzusida talaygina she'rlar yaratildi. Xurshid Davron ijodida "Vereshchagin", "Chyurlyonis", "Behzod", "Migel Ernandes so'zi", "V.G.Yan xotirasiga", "Sholoxov yodi", "Maksimilian Voloshin", "Turg'un Alimatovning tanburi" va boshqa she'rlarini ko'rishimiz mumkin. Usmon Azim she'riyatida "Brut", "Van gog haqida hikoya", "Usmon Nosirning so'nggi tushi", "Oybekning so'nggi she'ri", "Maqsud Shayxzoda", "Shuhrat Abdurashid xotirasiga", "G'ofur g'ulom haqida hujjatli fantaziya", kabi she'rlarini olishimiz mumkin. Shavkat Rahmon she'riyatida "Lorka", "Y. Yevtushenkoga", "Pablo Nerudaga", "Buddaga bir nazar" kabi she'rlarini, Rauf Parfi ijodida esa "Tagor va Sarbon yomg'irlari" "Betxoven", "Bayronning so'nggi safari", "Van gog", "Aleksandr Blok", "Eduard Veydembaum", "Pablo Neruda o'limiga", "Aleksandr Ulyanov", "Lutfixonim "Uyg'on bolam"", "Chingiz Aytmatov" kabi she'rlarni olishimiz mumkin. Ko'ryapmizki, ushbu davr ijodkorlari qalamga

olgan san'atkor qismati haqidagi she'rlarning ko'lami nihoyatda keng. Har qanday davr boshqa davrlardan farq qiladi. Ushbu davrning ham boshqa davrlardan qiyofasi, turish- turmushi o'zga edi. Albatta bu o'zgachalik shu davrda yashagan insonning umumiy kayfiyatini belgilaydi. 70- yillar avlodi o'zidan avvalgi salaflaridan farqli o'laroq o'zi to'qnash kelgan hayot bilan g'oyaning, so'z bilan amalning bir-biriga nomuvofiqligini teranroq his qiladi. Shuning uchun ham she'rlarida o'zgacha ruh, o'zgacha qarash va o'zgacha kayfiyat aks etadi. Jumladan Xurshid Davron san'atkor qismati mavzusidagi she'rlaridan "Migel Ernandes so'zi" sarlavhasidagi she'rida Ispan shoiri Migel Ernandesning o'limidagi holatiga (uning ko'zlari ochiq holatda o'ladi) ulkan ijtimoiy dardni yuklaydi. Shoirning e'tiqodicha, shoirlik bekordir, agar "Kulfat panjasida qolgan insonga Qalbini baxsh eta olmasa", chunki uning uchun shoirlik avvalo insonparvarlikdir. "Qanday yumay, kipriklarim qilichga aylansa, Vatan" deb boshlanuvchi she'rida "Qanday yumay?" degan savolni qayta- qayta ta'kidlaydi va bu savolning ortida nega yuma olmayotganligining sabablarini keltirib o'tadi. "Qanday yumay, do'stlarimni ko'rib tursam, Ko'rib tursam ular tutgan qurollarni" deya shoirning yuragida og'riqqa aylangan dardlarini birma-bir qalamga oladi. Bu dardlar yuqoridan pastga qarab gradatsiya orqali kuchayib boradi va davomida:

"Ona xalqim sen ochlikdan, qullikdan,
Muhabbatdan, nafrattan to'kkan ko'z
Yoshlaringni bir o'zim to'ksam,
Oqib tushib qorachig'im, yumilarmi ko'zlarim?"

deya xitob qiladi. Shoir ko'zlarni nega yuma olmayotganini misrama-misra teranroq anglab boramiz-u, bu ijtimoiy chirkinlik, erkinlikning oyoqosti bo'lishi aynan bizda ham bo'lgandi-ku, Migel Ernandesniku ko'zlari ochiqligini ko'rishibdi, ruhoniycha qo'yib ko'zlarini yumibdi deymiz. Ammo qatag'onlik qurbonlari bo'lgan millatimizning ziyolilari-yu ijodkorlarining, hatto o'liklari kafan ko'rmay ko'milmaganmidi; qabrlari uzoq o'lkalarda, muzliklarda, jarliklarda qolib ketmaganmidi degan savollar bo'g'zingda achchiq bir tug'yon bo'lib bo'g'adi. Shoir ham shu dardlarni his etgan albatta. Ammo buni ochiq ayta olmas edi. Shuning uchun ham o'zga bir yurt shoiri taqdirida buni akslantiradi. Shoir shu dardlarni his etib misralarda davom etadi:

"Men hech qachon qo'shiq aytmaganman motam, azada.
Biroq bugun bir xalq azasida kuylagim kelar,
Qo'shiq aytgim kelar o'lmas xalq haqida.
She'rlarimni yoqing, axir men bugun
Haqiqiy she'rlar yozishga qudratim yetganda
Qanday yumay ko'zlarimni,
Qanday yumay?!"

Misralarni o'qiymiz-u, ko'z oldimizda ispan shoiri emas, balki xalqni uyg'otish ilinjida o'limini bo'yniga olgan Cho'lponlar-u, Qodiriylarning

nigohlarini ko'rgandek bo'lamiz go'yo. Ushbu misralarda shoir xalq azasi va o'lmas xalq so'zlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi. Aynan yuqorida aytgan ziyolilarning o'limi xalq azasi emasmidi? katta yo'qotish emasmidi? Ammo bu yo'qotishlar bilan xalqning ruhi sinmadi. Ozodlikka bo'lgan ishonch so'nmadi. X. Davronning "Vereshchagin" she'rini yuqoridagi she'riga qarama-qarshi qo'yib tahlil qilsak. Ushbu she'rida ham san'atkor qismati tasvirlangan. Ammo butunlay o'zga qismat egasi edi bu Vereshchagin.

Satang xonimlarning davrasi aro
U olis Turkiston ertagin so'zlar.
Tegrada shukuhli, beg'am bir sado,
Bashang quvonchlarga o'rgangan ko'zlar.

U so'zlar Toshkandu Jizzah, Samarqand
Poyida qanday jon berganin sartlar.
Quvonchdan shivirlar: (Xonimlar tinglang!)
"Eh, bizning soldatlar, chinakam mardlar!"

Vasilevich Vereshchagin Ruslarning Osiyoga yurishlarida faol qatnashgan rus rassomi edi. 1868-yil 8-9- iyunda Samarqandda bo'lgan dahshatli qirg'inlarda ham qatnashadi. "Qonli voqealarni chizishni, Peterburgning kibor xonimlari davrasida: "Dorga osilgan odamlar tipirchilab turganda, rasmlarini chizganman", deya maqtanishni, "bir mullavachchani minoradan uloqtirib yubordim", deb maktublarida kerilishni haddan tashqari yoqtirgan mustabid rassom bu so'zlarni jazoga tortilayotgan odamlarga achinganidan emas, balki "saxovatli" Konstantin Petrovich irodasi va qatiyatiga qoyil qolganidan qayd etadi! Es-hushi joyida bo'lgan odamning inson qonini to'kib turgan jallodni "sahovatli" deyishiga ishonish mumkinmi?!" X. Davronning "Bosqinchi qahramon bo'ldimi?" nomli maqolasini "Zvezda Vostoka" oynomasining bosh muharriri S.Taturga ochi xat shaklida yoziladi. Ushbu maqolada oynomaning 1990-yil 3-sonida bosilgan "ko'zbo'yamachilik" asosida yozilgan maqolalariga keskin e'tiroz bildiradi. Bu maqolalar orasida "Rossiyaning mustamlakachilik siyosati, bu siyosatni amalga oshirgan generallar "jasorati" maddohi V. Vereshchagin" deya tilga oladi va u haqida shunday yozadi: "Vereshchagin haqidagi oynomangiz so'zboshida xatolar bor: "Mashhur rus musavviri Vasiliy Vasilevich Vereshchagin faqat mo'yqalam emas, shuningdek, qalam egasi edi, u nasr, hatto she'r bitardi", degan jumlagi "u miltiq va tig' egasi ham edi", deb tuzatish kiritish kerak! Oynoma: "Musavvir Vereshchagin va yozuvchi Vereshchagin doimo yonma-yon edi", deb yozadi. Menimcha, bu jumla ham, "Musavvir Vereshchagin, yozuvchi Vereshchagin va bosqinchi Vereshchagin doim yonma-yon edi", deb tuzatilsa, to'g'ri bo'lardi. Men Vereshchaginining asarlari, kundalik daftarlari, maktublari oynomangizda bosilishini istayman. Mobodo shunday niyatingiz bo'lsa, yuqoridagi tuzatishlardan foydalanasiz,

degan umidim bor." Deya yozadi X. Davron. Yuqorida keltirganimiz ikki bandda shoir nima demoqchiligini tushundik va she'rdagi obraz xatti-harakatlari mohiyatini ham ko'rdik deb o'ylaymiz.

Ko'p yillar o'tadi, anglar bir kuni
Boshqacha so'zlashi kerak edi u
Va o'sha beshafqat lahzadan uni
Tark etmas hech qachon yarador qayg'u.

Axir yodida-ku: Toshkand yonida
Sarmast kazaklarni jarga boshlashar...
Go'dakka o'q uza olmagan bitta
Yoshgina soldatni chopib tashlashar.

Berilgan ikki bandda lirik obraz o'zi haqiqat deb bilgan yolg'onlarning qulashi, vaqt o'tishi bilan o'zi ishongan mafkuraning paytavasiga allaqachon qur tushganligini anglashini, bir vaqtlar ko'kragini kerishga sabab bo'lgan vahshiyliklar eni uni ruhan qulashiga olib kelganligini anglashini, o'sha vahshiyliklardan lavhalar ko'z oldidan birma-bir o'tib ruhan azob berishini qalamga oladi shoir.

Beshafqat haqiqat qaytadi qalbg'a,
U shunda angelaydi, anglatar ranglar;
Miltiq o'qtalغانlar – boshqa Rossiya,
Boshqa Rossiyadir o'q uzmaganlar.

Ko'zlarin oldida qotar abadiy:
(bu balki vijdonning o'lmas mujdasi)
Miltiqlar tig'iga sanchilgan mitti –
Qonlarga bo'yalgan go'dak murdasi.

Lirik obraz anglab yetayotgan haqiqatlar uning chizgilarida o'z aksini topadi. Buyuk rus yozuvchisi aytgandek haqiqat – Rossiyadan ulug'dir. U topgan haqiqatda ham vahshiyliklar qilayotgan Rossiya boshqaligini angelaydi. Va ko'z oldida miltiq tig'lariga osilgan norasida go'daklar murdasi qayta jonlanadi.

Balki shuning uchun tunlar Isoga
Yolvorib, sig'inib, yosh to'lib ko'zga,
Urush maydonlarin egallab olgan
Quzg'unlar to'dasin chizar u bo'zga.

Qonli kunlar haqqi endi u bedor,
Ko'zini yumishga qo'rqadi, hayhot.
Tig'larga sanchilgan go'daklar takror
Qichqirar ko'zini yumgani zahot.

O'sha kunlar haqqi, qo'rquv, g'am ichra

Zulmat bandalari qilgan shum, basir,
Qonli gunohlarni jon chiqargancha
Yuvolmay dunyodan o'tdi musavvir.

Ushbu bandlarda musavvirning faqat azob chekayotganini his qilamiz. Uning suratlari endi avvalgidek kibr-u havoga emas, balki dard-u hasratga yo'g'rilgan tasvirlar. Ko'zlarini yumsa, o'sha tig'larga sanchilgan go'daklar ko'rinadi va anglagani o'sha "qora siyosat" qurboniga aylangani ruhan majruh yashashga mahkum etadi. Ammo ming afsus cheksa-da, bu gunohlarni yuva olmas edi. X. Davron san'atkor qismatining fojiali yakunini "Vereshchagen" she'ri orqali ideal shaklda tasvirlaydi. Bundan farqli o'laroq, o'z e'tiqodlariga, millatiga sodiq yashagan Federiko Garsia Lorkaning ayanchli taqdirini qalamga olar ekan, "qora siyosat" kuchlari tomonidan beshafqat o'ldirilayotgan xalqni ko'ramiz. Ularning qanday insonliklari; yaxshimi, yomonmi, do'st yo dushmanmi bu ahamiyatsiz. Shunchaki o'limga mahkum ekanliklarini ko'ramiz.

Uni tongga tirab otdilar...

U yiqildi,

So'ng yana turdi

Va yoshgina, bukri bir askar

Qo'ndog' bilan boshiga urdi.

She'rning birinchi bandini o'qir ekanmiz, oddiy bir insonni qay holatda xo'rlashlari guvohi bo'lamiz. Xuddiki, jarayonni ko'zlarimiz bilan ko'ramiz. Bu yerda yuqorida aytgan sabablarimizning ikkinchisi: san'atlar sintezini ko'rishimiz mumkin (bu boshqa masala, lekin aytib o'tishni joiz deb bildik). Birinchi misrada tong saharida sharpadek kelgan askarlar multiqlarini o'qtaladi-yu, o'q uzadi. She'r boshlanishidanoq konfliktga qurilgan. Go'yoki, ekranda kino ko'rayotgandek his qiladi kitobxon o'zini. Yangi misralardan esa yarador qonga belangan vujudi bilan bazo'r turayotganligi sahnasi ko'z oldimizda gavdalanadi. "kino kadri esa davom etadi." Yarador bir amallab o'rnidan turdi-yu, ularning ichidagi yosh bir bukri askar boshiga avtomatining qo'ndog'i bilan urib yiqitadi. "Tomoshabinlarning" qalbida askarlarga nisbatan chuqur nafrat uyg'onadi, bir erkin insonni bunday qiynoqqa solinishi "kinoning" boshidanoq "tomoshabinlarni" o'z ichiga olib kirib ketadi.

U jon berdi...

Askarlar esa

Shosha-pisha ortga qaytdilar,

Sharob ichib mungli qo'shiqni

Tun sukutin buzib aytdilar.

Misralar davomida erkin insonning erki qay darajada "qadrli" ekanini his qilamiz. Uning o'limi qalbida yonayotgan o'tga yonilg'i quygandek askarlardan nafratlanib ketamiz. Ammo askarlarning mungli qo'shiq kuylash sahnasi ularning ham yuragidagi dardlaridan xabar bergandek kitobxonda



achinish hisini uyg'otadi. Keyingi banddan askarlar kuylagan qo'shiq nima haqida ekanligi shoir tomonidan ochiqdanib boriladi:

Bu qo'shiqda bulutni yorgan
Hilol cho'qqi uzra porlardi,
Bu qo'shiq qor ostida yotgan
Chechaklarni bo'zlab chorlardi.

Bu qo'shiqda qora kiyingan
Tul kampirlar ertak to'qirdi,
Ularning oldida ko'zi ko'r bola
Zulmat aro kitob o'qirdi.

Ushbu misralarda insonga armon bo'lgan hislar, ushalishi qiyin orzular, kelajak qayg'usi, askarlarning qalbidagi dardlarni akslantirgan qo'shiq ekanligini ko'ramiz. Bu xuddi kinoda bir kishi o'ylanib o'tiradi-yu, musiqa ohangida xotiralari xira tortgan, rangsiz tasvirda ekranda jonlanadi. Bu bandda ham xuddi shunday kadrni ko'rishimiz mumkin va so'nggi bandda shoir asosiy aytmoqchi bo'lganlarining mohiyatiga yetamiz.

Qo'shiq kuylab,
Tuyib alamni,
Yosh askarlar sarmast edilar,
Shu qo'shiqni yozgan odamni
Otganlarin bilmas edilar...

Yechimsiz konfliktning guvohi bo'ldik nazarimda. "U" deb ta'kidlab kelingan, erki oyoq osti qilib o'ldirilgan "u" aslida askarlar sevib dardlariga hamohang yozilgan she'rlarini o'qiguvchi shoirlarini o'ldirganlarini bilmas edilar. Millatning ruhini o'ldirayotganlarini bilmas edilar. Bularga shunchaki o'ldirilish buyurilgan. Buyruqni bajar, qolgani bilan ishing bo'lmasin degan qarashlar singib ketgan onglarida rahm degan narsa nima qilsin. Albatta bu she'rlar buyurtma asosida yozilgan. Ammo buning ortida yotgan ijtimoiy dard faqat ispanlarga tegishlimi? Yo'q. Bizning diyorda bundan bo'lakcharoq holat bo'lganmidi? Yana yo'q. Bundan ham vahshiyroq bo'lsa bo'lganki, bundan yengil bo'lmagan. San'at tuzum uchun xizmat qildi. 70- yillarga kelibgina yangicha qarashlar va yangicha fikrlashlar she'riyatga kirib keldi. Sababi istiqloлга ishonch, chirkin tuzumga esa nafrat ortib bo'lgandi ijodkor qarashlarida. "XIX asrning qariyb ikkinchi yarimidan XX asrning so'nggi o'n yiliga qadar davom etgan uzun muddat har xil shakllarda turlanishiga qaramay, mohiyatan istibdod davri bo'ldi". Shoir bu bo'g'riqqan tuzumda erkin nafas ololmaydi. Uning bu kechinmalari esa she'rlarida akslanadi. Yuqorida aytganimizdek ushbu she'rida ham faqat ispan shoirini qalamga olmadi shoir.

Balki o'zining yuragida sanchiqdek qadalib turgan dardlaridan bir parchasini o'zga yurtning ijodkori taqdiri misolida yoritadi. She'rning kino san'ati bilan sintezini ham kuzatib bordik. Ushbu qorishuv she'riyatga go'zal

joziba baxsh etgan nazarimizda. Avvalo bu avlod shoirlikni qismatgina emas, balki yashash tarzi deb biladi. Bu esa shunday yashash tarziki, dunyoda yuz berayotgan har neki bo'lsa, shoir yuragida o'z sadosini bermay qolmagan. Shoir esa bularning bari uchun o'zini ma'sul his etgan. "30- marta tug'ilgan ikki daho: fransuz shoiri Polo Verlen va niderland musavviri Vinsent Van Gog ijodi, ularning achchiq taqdiri dunyo shoirlarini hamisha hayajonga solib kelgan". O'zbek she'riyatida bu ijodkorlarga Rauf Parfidanda ruhan yaqinroq ijojodkor yo'q nazarimizda. X.Davron "Pol Verlen, Vinsent Van Gog va Rauf Parfi" nomli maqolasida shunday eslaydi: "O'shanda Rauf akaning "Verlen musavvir, Van Gog shoir, men esa kompozitor bo'lishim kerak edi, aslida" degan gapi xotiramda muhrlanib qoldi"¹. Bundan ko'rinadiki, Rauf Parfi faqatgina so'z san'atini emas, balki rangtasvirni, musiqani chuqur his etgan va anglagan ijodkor edi va buni anglash uchun "Van Gog" hamda "Verlen" she'rlarini tahlil qilish yetarli bo'ladi.

Buyuk sevgi rangin izlab yuribdi...

Yozar moviylikka rangin qasida.

Biroq hayrat ichra qalqar yuragi

Yaxshilik, yomonlik chegarasida.

Ushbu misralarda chuqur majozni ko'rishimiz mumkin. Ya'ni ijodkor shoir va musavvir qismatini bir-biriga o'xshash qo'ymoqda. Musavvir BUYUK SEVGIni mo'yqalami bilan qidirs, shoir so'z bilan qidiradi.

Hech narsasiz, lekin mehri ziyoda,

Izlar tiriklikning sirli bo'yog'in.

Buncha g'arib... razillar ko'p dunyoda?!

Kesib bersamikan qolgan qulog'in...

Vinsent birgina ilojsizlik va tushkunlik oqibatida bir qulog'ini kesib tashlagan. U umri davomida yo'qchilikda yashagan. Ammo o'z e'tiqodiga sodiq bo'lgan. R.Parfini ham shu hislar doim ruhlantirgan nazarimizda. So'nggi misrada "Yuragin rangini ko'rmoqchi bo'ldi..." deya she'rni yakunlaydi. Bu bejiz emas. Musavvir o'z hislarni, dardlari-yu, kechinmalarini rang bilan ifodalaydi. TIRIKLIKNING SIRLI BO'YOG'Ini go'yoki yuragining rangidan topmoqchi bo'ladi. Yuragiga singib ketgan dardlarga yurak qonidan ranglar olib musavvir mo'yqalamida jonlanadi.

Ko'ryapmizki san'atkor qismati mavzusi ancha keng masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Ba'zi she'rlarda vatan, istiqlol sog'inchi ma'nolari yashiringan bo'lsa, ba'zilarida ijodkorlarning boshqa san'at sohalari vakillaridan ruhlani, ular bilan ruhan og'a-ini tutinish hisini boshdan kechirganini ko'rishimiz mumkin va yana ba'zilarida shoirning she'rlarini boshqa san'at sohalari bilan sintezi natijasida yozilgan go'zal yozg'ichlari guvohi bo'lamiz. Ba'zi she'rlarida o'z e'tiqodlari yo'lida sobitqadam obrazlarni qalamga olishadi. Ammo san'atkor taqdiri markaziy plandagi masala. Uning ortidan ko'rinayotgan ma'nolar esa ijodkorning subyektiv hukmlaridir. R.

Parfi "Bextoven" nomli she'rida ijodkor o'z iste'dodiga cheklov qo'yilsa-da, so'nggi imkon tugaguncha ijod qilish, ijod qilish va yana ijod qilish kerakligini teran his qiladi. Shu o'rinda R.Parfining badiiy idrok va ijodkor shaxsiyati masalasi haqidagi fikriga to'xtalsak: "Xususan, shaxsiyat butunligisiz asl san'atning bo'lishi mumkin emas; tuyg'u- kechinmalar ko'lmakka aylanib qolgan holatda shoir shaxsiyatining san'atdagi inqirozi boshlanadi. Bu – ijodkor shaxsiyatining sinishi demakdir. Bu – asl san'atga yolg'onning aralashishi, ijodkor hukmron mafkuralar malayiga aylanish oqibatidir." "Bextoven" nomli she'rini ham shu e'tiqodi asosida yozgan nazarimizda.

Hozir so'ng zarb ila uzilajak tor,
O'zing qo'lla meni, ey, buyuk Daho.
Nahot, har ne abas, hammasi bitar,
Qanday saodatdir bu so'nggi sado?

Shivirlar, hayqirar bepoyon dengiz,
Men uni sipqarmoq istayman tanho.
Faqat sen ko'zingni bag'ishla, Ziyoy,
Faqat sen, Jasorat, qo'lingni ber tez.

Ijodkor oldindan nima bo'lishini bilib turibdi. Lekin umid qiladi. Hayoti ko'z oldidan o'tgandek butun mehnati, ijod safari ko'z oldidan o'tadi. Ammo hammasi bitayotganini, har narsa unga bevafoqlik qilayotganini his etadi va so'nggi chalayotgan ohangidan taskin izlaydi, e'tiqodidan yuz burmaydi. Uning ko'nglida shunday to'liqlik hislar kechadiki, bepoyon dengizlarni sipqarishni, ziyoning bor ko'rinishini ko'zlariga jam qilishni va o'zidagi jasoratni so'nggi nafasgacha birga bo'lishi istaydi. "Balki bu Osmon – orzu sadosi, Dengiz – xayollarin sadosidir bu, Haqiqat toshida qasamdir ezgu." Ijodkor uchun osmon orzularining, dengiz esa xayollarining sadosidek. Dengiz o'ziga sig'may to'liqlik qoyalarga urilganidek uning hislari ham to'liqliklaridan ham shiddatliroq, chalayotgan ohangga hamohang qalbidan qaynab toshadi va bu uning yolg'iz va mangu haqiqati bo'ladi. R. Parfi shunday holat bilan bog'liq ustoz Abdurahmon Vodiliy she'riyatining hayotiy mag'zi haqida to'xtalar ekan, yozadi: "Moddiy va ma'naviy og'irliklarga qaramasdan shoir qalamini qo'ldan qo'ymadi, yuragidagi dard-u hasratini qog'ozga tushirib qoldirdi. Bu asarlar bugun davr haqidagi kuchli hujjatga aylandi. "Beshikdan qabrgacha ilm izla", deyiladi, hadisi sharifda. Ammo, boshingda zulm qilichi yalang'och ekan, ilm izlamaysan, bir osuda nafas, bir burda non izlaysan. Ko'zingga tashlangan ochlik pardasi iymon pardasini yuzdan ko'taradi. O'z nafsining ustidan g'alaba qilgan inson chin shoirdir". R. Parfi ham shu e'tiqodga to'umrining oxirigacha sodiq yashadi va she'rlaridagi san'atkor qismati mavzusida ham shu ruh saqlanib qoladi.

Suyukli insonga balki vidosi,
Hozir so'ng zarb ila uzilajak tor –
So'nggi zarb hayotni yashamoq darkor.

So'nggi nafas kabi vido onida turgan bo'lsa ham ijodkor so'nggi zarbnida yashatmog'i shartligini aytadi. Rauf Parfining qarashlari ham aslida shunday edi. U shunday yozadi: "San'atning vazifasi insonga o'limni anglatishdir. Shakli qanday bo'lishidan qat'iy nazar... Tushungan, anglagan inson hamisha og'riq, fojia bilan yashaydi. Agar, ta'bir joiz bo'lsa, shunday aytish mumkin – fojia inson bilan birga tug'ilgan aniq narsa. Inson doim o'lim bilan yonma-yon yuradi. Toshbaqa kosasini bir umr ortib yurgandek, o'z o'limini doimo ko'tarib yurishga mahkum. Menimcha, o'z o'limini ko'tarib yurgan odam Allohga, o'ziga, birovga xiyonat qilmaydi". Shoir fojiani inson bilan birga tug'ilgan narsa deydi va yuqorida tahlil qilgan she'rimizda ham fojeadan qo'rqmaydi. Toki tor uzilmaguncha ijodda davom etadi, o'zligiga xiyonat qilmaydi. Aslida butun bashariyat shunday bo'lishi kerak emasmi? R.Parfi ijodida yoritilayotgan san'at mavzusi faqat san'at vakillariga bag'ishlanmagan balki butun bashariyatga tegishlidir. Bunday ruhiyat Shavkat Rahmon she'riyatiga ham tegishli. Uning san'atkor qismati mavzusidagi she'rlarini o'qir ekanmiz dunyoda har neki bo'lsa, u hodisalar shoirning yuragida o'z sadosini beradi va Sh. Rahmon bari hodisalar uchun o'zini mas'ul o'laroq shoirlardan biri edi. She'rlarida ham bu ruhiyatini akslantiradi. Uning rus shoiri Yevtushenkoga bag'ishlangan she'rda ham shu fikrlarni singdirilganini ko'rishimiz mumkin:

Gazetalar chinqirar – dahshat,
Qayda vabo, qayda bosqinlar,
Ado bo'lmas janjal, xiyonat,
Tamom bo'lmas otqin, osqinlar.

